



UDK:53.044:53.047

Nuraddin ABDULLAYEV,  
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b  
E-mail:nabdullayev9094@mail.ru

TAQU dotsenti S.S.Xudoyberdiyev taqrizi asosida

### FIZIKANING MEXANIKA BO'LIMIDAGI TEBRANISHLAR UCHUN XUSUSIY QIYMATLAR MASALASINI TIZIMLI TAHLIL ASOSIDA YECHISH

Anatatsiya

Tizimli tahlil mohiyati, tizimli tahlil nazariyasi, tamoyillari va uslublari asosida tizimli xarakterga ega bo'lgan murakkab qarorlarni yechish imkoniyatidir. Shundan kelib chiqib, tizimli tahlil maqsadi turli variantlardan, mavjud resurslardan samarali foydalangan holda natijaga erishish hisoblanadi. O'z o'rnida maqsadni shakllantirish strukturalashtirish va tahlil tizimli tahlilni asosiy va birlamchi vazifasi sifatida maqsadga erishishda uslub va metodidan holi ko'rish mumkin emas. Maqsadni aniqlash muammoni yechish yo'lidek sxematik ko'rinishda  $Z>F>S>P$ : Z-sub'yektiv maqsad, P-ob'yektiv maqsad, Maqsad (Z) noaniqligi va muqobilligi o'z o'rnida ko'p yo'llar mavjudligini olib keladi, bu esa natijalar ko'pligini olib keladi. Maqsadni aniqlash tizimli tahlil metodologiyasidan kelib chiqqan holda o'ta muhim jarayondir. Bu jarayonda bilim, tajriba, tahlil katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar doirasida tizimli fikr yurita oladigan, murakkab muammolarni hal eta oladigan yuksak madaniyatli shaxsni tarbiyalash tizimini yaratish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ushbu maqolada fizikaga tizimli yondashish fizikaning mexanika bo'limini tizimli tahlil asosida o'qitishning mohiyati tushuntiriladi.

**Kalit so'zlar:** mexanika, tebranish, garmonik tebranish, metodika, tizim, tizimli tahlil, tizim nazariyasi, tizimli yondashuv.

### РЕШЕНИЕ ЗАДАЧИ СОБСТВЕННЫХ ЗНАЧЕНИЙ ДЛЯ КОЛЕБАНИЙ В РАЗДЕЛЕ МЕХАНИКИ ФИЗИКИ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНОГО АНАЛИЗА

Аннотация

Суть системного анализа заключается в возможности решения сложных задач системного характера на основе теории, принципов и методов системного анализа. Исходя из этого, целью системного анализа является достижение результата посредством выбора из различных вариантов и эффективного использования имеющихся ресурсов. Формулировка цели, структурирование и анализ являются основными и первоочередными задачами системного анализа и неразрывно связаны с методами и подходами для достижения цели. Определение цели представляется как схема решения задачи:  $Z>F>S>P$ , где Z - субъективная цель, P - объективная цель. Неопределенность и альтернативность цели (Z) предполагает множество путей, что, в свою очередь, приводит к множеству результатов. Определение цели является чрезвычайно важным процессом в рамках методологии системного анализа. В этом процессе важную роль играют знания, опыт и анализ. Одной из основных целей современной системы образования является создание системы воспитания высококультурных личностей, способных мыслить системно и решать сложные задачи в рамках масштабных реформ, проводимых в нашей стране. В связи с этим в данной статье объясняется сущность системного подхода к обучению физике на основе системного анализа раздела механики.

**Ключевые слова:** механика, колебания, гармонические колебания, методика, система, системный анализ, теория систем, системный подход.

### SOLUTION OF THE EIGENVALUE PROBLEM FOR OSCILLATIONS IN THE SECTION OF MECHANICS OF PHYSICS BASED ON SYSTEM ANALYSIS

Annotation

The essence of system analysis is the ability to solve complex systemic problems based on the theory, principles and methods of system analysis. Based on this, the purpose of system analysis is to achieve a result by choosing from various options and effectively using available resources. Goal formulation, structuring and analysis are the main and primary tasks of system analysis and are inextricably linked with the methods and approaches to achieving the goal. Goal definition is presented as a problem solving scheme:  $Z>F>S>P$ , where Z is a subjective goal, P is an objective goal. The uncertainty and alternativeness of the goal (Z) suggests many paths, which, in turn, leads to many results. Goal definition is an extremely important process within the methodology of system analysis. Knowledge, experience and analysis play an important role in this process. One of the main goals of the modern education system is to create a system for educating highly cultured individuals who are able to think systematically and solve complex problems within the framework of large-scale reforms carried out in our country. In this regard, this article explains the essence of a systems approach to teaching physics based on systems analysis of the mechanics section.

**Key words:** mechanics, oscillations, harmonic oscillations, methodology, system, systems analysis, systems theory, systems approach.

**Kirish.** Tizimli tahlilning rivoji XX asr yarimida ilmiy-texnikaviy vazifalarning vujudga kelishi bilan paydo bo'ldi. Bunda asosiy o'rinni murakkab ob'yektlarni tashkil etish va amalga oshirish, bilish va amaliy tadbiq etish jarayonlar egallaydi. Bu o'z navbatida murakkab ob'yektlarning o'ziga xos xususiyatlarini alohida tadbqiq etish zaruratini talab qiladi. Mazkur vazifalar ijtimoiy amaliyotda tadbqiq etilishi zaruratini vujudga keltiradi. Yirik vazifalar yechimini topishda ko'p qirrali texnika bir-biri bilan bog'liq murakkab tizimga aylanib boradi. Zero, davrning o'zi insonlar oldiga yangi vazifalarni yechimlari bilan beradiki, uni anqlash, bilish, amal qilish, hal etish jamiyatda qaror topgan ta'lim-tarbiya tizimining mazmunida yotadi. Shuning uchun pedagogikada tizimli tahlilning metodologik asoslari tobora o'sib kelayotgan davr va ijtimoiy munosabatlar talablaridan kelib chiqib, o'z texnologiyasini muvoffiqlashtirilishini talab qiladi.

Tizim (yunoncha σύστημα – qismlardan iborat yaxlit birikma) – bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sirlashuvchi elementlarning yaxlit to'plamidir. Kundalik hayotimizda sistema so'zi turli xil boshqacha atamalar bilan ham ishlatiladi: nazariya (Platonning falsafiy sistemasi), sinflashtirish (Mendeleyev kimyoviy elementlar davriy sistemasi), amaliy faoliyatning tugallangan usuli (Stanislavskiy sistemasi (aktyorlik texnikasi usullari)), fikrlash faoliyatini tashkil etish usullari (sanoq sistemasi (sonlarning ketma-ketligi)), tabiiy ob'yektlar to'plami (Quyosh sistemasi), jamiyatning ayrim xususiyatlari (siyosiy sistema, iqtisodiy sistema va b.), qonuniyat va boshqalar.


Bugungi kunda tizimli o'rganish deyarli hamma fan sohalarida mavjud, turli nomlar bilan ataladi: tizim nazariyasi, tizimli taxlil, sistemologiya, kibernetika, tizimli injeneriya, termodinamika, tizimli dinamika va boshqalar. Tizimli tahlil uslubiy tadqiqotlarning muhim ob'yekti va eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Har bir tizimli tahlil nazariy ta'limoti umumiy tamoyillarga bo'ysingan holda mahalliy muammolarning xususiyatidan kelib chiqib takomillashtiriladi. Bu esa maqolaning dolzarbligini belgilab berdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning maqsad: Ikkita massali tebranuvchan tizimni o'rganish. Ikkita massa va uchta prujina berilgan tebranuvchi tizim uchun harakat tenglamalarini keltirib chiqarish va MATLAB dasturida uni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish.


Masalaning qo'yilishi: Tinglovchi ikkita massali tebranuvchan tizimni o'rganish kerak. Buning uchun ikkita massa va uchta prujina bilan birlashtirilgan tebranuvchi fizik tizim uchun harakat tenglamalarini keltirib chiqarishi va MATLAB dasturi orqali natija olishi lozim.

**Ishni bajarish uchun ko'rsatma va namuna**

Ikkita massali tebranuvchan tizimni o'rganamiz. Ikkita massa va uchta prujina berilgan tebranuvchi tizimni qayraylik. Massalar faqat gorizontal yo'nalishda harakatlanadi (ular tepa va pastga harakat qilmaydilar).



Tenglamalarni tuzish. Bu tizim uchun biz erkin harakat sxemasini chizamiz.



Bundan kelib chiqib, harakat tenglamalarini yozamiz:

$$m\ddot{x}_1 + (k_1 + k_2)x_1 - k_2x_2 = 0$$

$$m\ddot{x}_2 + (k_2 + k_1)x_2 - k_2x_1 = 0$$

$$-\frac{k_1 + k_2}{m}x_1 + \frac{k_2}{m}x_2 = \ddot{x}_1$$

$$\frac{k_2}{m}x_1 - \frac{k_1 + k_2}{m}x_2 = \ddot{x}_2$$

Ularni matrisalar ko'rinishida yozib olamiz (yozuvni soddalashtirish uchun va  $\alpha$  va  $\beta$  deb belgilaymiz):

$$\begin{bmatrix} -\frac{k_1 + k_2}{m} & \frac{k_2}{m} \\ \frac{k_2}{m} & -\frac{k_1 + k_2}{m} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \ddot{x}_1 \\ \ddot{x}_2 \end{bmatrix}$$

$$\begin{bmatrix} -\beta & \alpha \\ \alpha & -\beta \end{bmatrix} \mathbf{x} = \ddot{\mathbf{x}}$$

Yechim ko'rinishini topamiz. Yechim ko'rinishini topishga o'tamiz. Bunda biz so'nish bo'lmaydi deb olib, faqat ossilyasyon yechimini izlaymiz.

$$\mathbf{x} = \mathbf{v}e^{j\omega t} = \begin{bmatrix} v_1 \\ v_2 \end{bmatrix} e^{j\omega t}$$

$$\ddot{\mathbf{x}} = -\omega^2 \mathbf{v}e^{j\omega t} = -\omega^2 \mathbf{x}$$

$$\begin{bmatrix} -\beta & \alpha \\ \alpha & -\beta \end{bmatrix} \mathbf{x} = -\omega^2 \mathbf{x}$$

Shunday qilib, bu muammoning xususiy qiymatlarini topish bo'ladi.

$$\mathbf{A}\mathbf{x} = \lambda\mathbf{x} \quad \text{where } \lambda = -\omega^2$$

Xususiy qiymatlarni yechish.

$$|\mathbf{A} + \omega^2 \mathbf{I}| = 0 = \begin{vmatrix} \omega^2 - \beta & \alpha \\ \alpha & \omega^2 - \beta \end{vmatrix}$$

$$(\omega^2 - \beta)^2 - \alpha^2 = \omega^4 - 2\beta\omega^2 + (\beta^2 - \alpha^2) = 0$$

$$\text{so } \omega^2 = \frac{2\beta \pm \sqrt{4\beta^2 - 4(\beta^2 - \alpha^2)}}{2} = \beta \pm \alpha$$

Biz xususiy qiymatlari karakteristik tenglama tuzish orqali topamiz.

$$\omega_1^2 = \beta + \alpha = \frac{k_1 + 2k_2}{m} = 3$$

$$\omega_2^2 = \beta - \alpha = \frac{k_1}{m} = 1$$

Soddalashtirish maqsadida biz  $k_1=k_2=m=1$  holini ko'ramiz. Shunday qilib,

Endi biz xususiy vektorlarni ham topishimiz mumkin. Birinchi xususiy vektor uchun

$$(\mathbf{A} + \omega_1^2 \mathbf{I}) \mathbf{v}_1 = 0$$

$$\begin{pmatrix} -2 & 1 \\ 1 & -2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 3 & 0 \\ 0 & 3 \end{pmatrix} \mathbf{v}_1 = 0$$

$$\begin{bmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 1 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} v_{1,1} \\ v_{1,2} \end{bmatrix} = 0$$

$$v_{1,1} = -v_{1,2}$$

yechimni topamiz.

Shunday qilib biz birinchi xususiy vektorni tanlaymiz. Bu vektorni ixtiyoriy o'zgarmas kattalikka ko'paytirishimiz mumkin.

$$\mathbf{v}_1 = \begin{bmatrix} 1 \\ -1 \end{bmatrix}$$

Ikkinchi xususiy vektor uchun

$$\begin{aligned} (\mathbf{A} + \omega_2^2 \mathbf{I}) \mathbf{v}_2 &= 0 \\ \begin{pmatrix} -2 & 1 \\ 1 & -2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 1 & 0 \\ 0 & 1 \end{pmatrix} \mathbf{v}_2 &= 0 \\ \begin{pmatrix} -1 & 1 \\ 1 & -1 \end{pmatrix} \begin{bmatrix} v_{21} \\ v_{22} \end{bmatrix} &= 0 \\ v_{21} &= v_{22} \\ \mathbf{v}_2 &= \begin{bmatrix} 1 \\ 1 \end{bmatrix} \end{aligned}$$

ni topamiz. Harakatlanuvchi tizim uchun umumiy yechim. Biz ikkita massali tizimning harakat tenglamasi uchun umumiy ko'rinishni aniqlaymiz.  $\mathbf{x}(t) = c_1 \mathbf{v}_1 e^{j\omega_1 t} + c_2 \mathbf{v}_1 e^{-j\omega_1 t} + c_3 \mathbf{v}_2 e^{j\omega_2 t} + c_4 \mathbf{v}_2 e^{-j\omega_2 t}$

E'tibor berish kerakki, har bir chastota ikki martadan ishlatiladi, sababi biz tanlagan yechim chastotaning kvadratiga bog'liq (musbat va manfiy yechimlar kelib chiqadi)

Differensial tenglamalarning yechimini topishga o'xshab, noma'lum koeffitsiyentlarni topish uchun boshlang'ich shartlarni aniqlaymiz.

Real yechimni topish uchun  $c_1$  va  $c_2$  yoki  $c_3$  va  $c_4$  lar bir biriga kompleks bog'langan bo'lishi zarur. Tenglamani boshqacha ko'rinishda yozamiz:

$$\mathbf{x}(t) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 t) + \gamma_3 \mathbf{v}_1 \sin(\omega_1 t) + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 t) + \gamma_4 \mathbf{v}_2 \sin(\omega_2 t)$$

$$\mathbf{x}(0) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 \cdot 0) + \gamma_3 \mathbf{v}_1 \sin(\omega_1 \cdot 0) + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 \cdot 0) + \gamma_4 \mathbf{v}_2 \sin(\omega_2 \cdot 0)$$

$$\mathbf{x}(0) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2$$

Noma'lumlar topish uchun boshlang'ich shartlardan foydalanamiz.  $\mathbf{x}(0) = \omega_1 \gamma_3 \mathbf{v}_1 + \omega_2 \gamma_4 \mathbf{v}_2$

Ko'pchilik hollarda biz vaziyatning boshlang'ich shartlarida tezlikni nolga teng deb qabul qilamiz.

$$\mathbf{x}(0) = \begin{bmatrix} x_1(0) \\ x_2(0) \end{bmatrix}, \dot{\mathbf{x}}(0) = \begin{bmatrix} 0 \\ 0 \end{bmatrix}$$

$$\mathbf{x}(0) = \omega_1 \gamma_3 \mathbf{v}_1 + \omega_2 \gamma_4 \mathbf{v}_2$$

$$\mathbf{x}(0) = \begin{bmatrix} 0 \\ 0 \end{bmatrix} = \omega_1 \gamma_3 \begin{bmatrix} 1 \\ -1 \end{bmatrix} + \omega_2 \gamma_4 \begin{bmatrix} 1 \\ 1 \end{bmatrix}$$

Boshlang'ich tezlikning shunday shartidan foydalanib, biz quyidagini yozamiz

Bu quyidagi tenglamalarga olib keladi.

$$0 = \omega_1 \gamma_3 + \omega_2 \gamma_4$$

$$0 = -\omega_1 \gamma_3 + \omega_2 \gamma_4$$

Bizga ma'lumki, chastota nolga teng bo'lmaydi va bu esa quyida bittagina yechimda shunday bo'ladi

$$\gamma_3 = \gamma_4 = 0$$

Shunday qilib, agar boshlang'ich tezlik nolga teng bo'lsa cosinus funksiyaning hadlari qoladi va sodda yechim topiladi

$$\mathbf{x}(t) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 t) + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 t)$$

Noma'lum koeffitsiyentlarni topish

Boshlang'ich shartlardan foydalanib,  $\gamma_1$  va  $\gamma_2$  koeffitsiyentlarni topishimiz mumkin.

$$\mathbf{x}(0) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 \cdot 0) + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 \cdot 0) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2$$

Bu bir qancha usullarda yechishimiz mumkin bo'lgan 2x2 tenglamani beradi. Buning eng sodda usuli kompyuterda matrisalar sifatida

$$\mathbf{v} = [\mathbf{v}_1 \quad \mathbf{v}_2] = \begin{bmatrix} 1 & 1 \\ -1 & 1 \end{bmatrix}$$

qarab yechimini topishdir. Ustunlari masalaning xususiy vektorlaridan iborat bo'lgan 2x2 matrisani tuzamiz.

Boshlang'ich shartlar uchun tenglama

$$\mathbf{x}(0) = \mathbf{v} \begin{bmatrix} \gamma_1 \\ \gamma_2 \end{bmatrix} = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \quad \mathbf{x}(0) = \begin{bmatrix} \gamma_1 \\ \gamma_2 \end{bmatrix} = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2$$

dan iborat bo'ladi.

Bunda  $\gamma_1$  va  $\gamma_2$  koeffitsiyentlarni  $\mathbf{x}(0)$  ga ko'paytirilgan teskari v kattalik deb osongina topishimiz mumkin.

$$\begin{bmatrix} \gamma_1 \\ \gamma_2 \end{bmatrix} = \mathbf{v}^{-1} \mathbf{x}(0)$$

Namuna. 2 massadan iborat tizimda tebranish

$k_1 = k_2 = m = 1$  bo'lgan holda ko'rib chiqaylik. Boshlang'ich shart quyidagicha  $\mathbf{x}(0) = \begin{bmatrix} 1 \\ 0 \end{bmatrix}$   
Faraz qilaylik, yechim quyidagicha

$$\mathbf{x}(t) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 t) + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 t)$$

Bizga ma'lumki,

$$\mathbf{x}(0) = \begin{bmatrix} 1 \\ 0 \end{bmatrix} = \gamma_1 \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 \cdot 0) + \gamma_2 \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 \cdot 0) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2$$

$$\begin{bmatrix} 1 \\ 0 \end{bmatrix} = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2 = \gamma_1 \begin{bmatrix} 1 \\ -1 \end{bmatrix} + \gamma_2 \begin{bmatrix} 1 \\ 1 \end{bmatrix}$$

$$1 = \gamma_1 + \gamma_2$$

$$0 = \gamma_1 - \gamma_2$$

Buni ikki noma'lumli ikkita tenglama ko'rinishida ifodalashimiz mumkin.

Bu holda koeffitsiyentlar quyidagiga teng bo'ladi

$$\gamma_1 = \gamma_2 = \frac{1}{2}$$

Shunday qilib, harakat tenglamasi

$$\mathbf{x}(t) = \frac{1}{2} \mathbf{v}_1 \cos(\omega_1 t) + \frac{1}{2} \mathbf{v}_2 \cos(\omega_2 t)$$

yoki

$$x_1(t) = \frac{1}{2} \cos(\omega_1 t) + \frac{1}{2} \cos(\omega_2 t)$$

$$x_2(t) = -\frac{1}{2} \cos(\omega_1 t) + \frac{1}{2} \cos(\omega_2 t)$$


Ko'rinishda bo'ladi. Izoh: Boshlang'ich shartlarni bilgan holda bu yechimni matrisalar ko'rinishida ham topishimiz mumkin.

$$\mathbf{x}(0) = \gamma_1 \mathbf{v}_1 + \gamma_2 \mathbf{v}_2 = \begin{bmatrix} \mathbf{v}_1 & \mathbf{v}_2 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \gamma_1 \\ \gamma_2 \end{bmatrix} = \mathbf{V} \begin{bmatrix} \gamma_1 \\ \gamma_2 \end{bmatrix}$$

$$\begin{bmatrix} \gamma_1 \\ \gamma_2 \end{bmatrix} = \mathbf{V}^{-1} \cdot \mathbf{x}(0)$$

$\gamma_1$  va  $\gamma_2$  koeffitsiyentlarni topish quyida MATLAB dasturida xisoblab quyidagi grafik chiziladi.

#### Natijalar tavsifi va tahlili



Yuqorida berilgan boshlang'ich shartlarda tizimning o'tish xarakteristikalarini o'zgarishi keltirilgan. Pastida tizim xususiy vektorining o'zgarishi berilgan. Vertikal o'qda amplituda, gorizontal o'qda esa xususiy qiymat keltirilgan.  $\gamma_1$  xususiy qiymati [0.7071; -0.7071] (bu havoranda berilgan), birinchi element 0.7071 qiymatga, ikkinchi element -0.7071 qiymatga ega.  $\gamma_2$  xususiy qiymati [0.7071; -0.7071] (bu yashil rangda berilgan). Punktir chiziqda bilan ko'rish yo'nalishi berilgan (ayrim elementlarning xususiy vektorlari bir birini to'sishi mumkin).

**Xulosa.** Tizimli tahlil muammoni hal qilish metodologiyasi sifatida muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan barcha zarur usullar, bilimlar va harakatlarni umumlashtiradigan ustun bo'lib xizmat qiladi. U jarayonni tadqiq qilish, statistik nazariya va shunga o'xshash boshqa sohalar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Tizimli tahlil u yoki bu usulni qaysi bosqichda va qanday ishlatishni belgilaydi.

Qo'yilgan masala xulosasi: Muammoni hal qilish metodologiyasi sifatida tizimli tahlil muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan barcha zarur texnikalar, bilimlar va harakatlarni umumlashtirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bundan foydalanib, jarayon tahlili, statistik tahlil nazariyasi va boshqalar kabi sub'ektlar bilan munosabatlarni aniqlash mumkin. Tizimli tahlil usuli qachon va qanday shaklda qo'llanilishi kerakligini aniqlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. D.Imboden, S.Pfenninger Introduction to Systems Analysis: Mathematically Modeling Natural Systems, Springer: Heidelberg New York Dordrecht London, 2013
2. В.Н.Романов Системный анализ. Санкт-Петербург, СЗГЗТУ, 2006.
3. В.Н.Чернышов, А.В.Чернышов Теория систем и системный анализ: Учеб. пособие. Тамбов: ТГТУ, 2008
4. А.В.Антонов, Системный анализ, Учебник для ВУЗов, М.: Высшая школа, 2004
5. <http://www.swarthmore.edu/NatSci/echeeve1/Class/e12/E12Syll.html>
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/Systems\\_analysis](https://en.wikipedia.org/wiki/Systems_analysis)
7. <http://www.businessdictionary.com/definition/systems-analysis-SA.html>
8. <https://ru.wikipedia.org/wik>



UDK:531.781.2

*Gulmurza ABDURAXMONOV,*  
*O'zMU Fizika fakulteti professori*  
*E-mail: gulmirzo@mail.ru,*  
*Muhriddin TURSUNOV,*  
*O'zMU Fizika fakulteti tayanch doktoranti*  
*Avazbek DEXQONOV,*  
*O'zMU Fizika fakulteti tayanch doktoranti*

*Fizika-matematika fanlari doktori, professor B.Umirzakov taqrizi asosida*

## POSSIBILITIES OF MAKING A STRAIN GAUGE FROM SILICATE GLASS DOPED WITH RUTHENIUM DIOXIDE

Annotation

In this paper, the effects of resistor paste components and baking temperature on the temperature coefficient of resistance (TCR) of a thick-film resistor were systematically investigated. Thick film resistors prepared from RuO<sub>2</sub> concentrations (from 10 wt% to 30 wt%) baked at different temperatures on an Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> substrate were investigated. The relationship between resistor resistance, TCR and scale factor (GF) was studied. The results show that TCR also increases with increasing RuO<sub>2</sub> concentration and baking temperature. Near the minimum (T<sub>min</sub>) of the resistance-temperature curve, the temperature has the least effect on the resistance value, and a thick-film resistor can be considered insensitive to temperature in a certain range. The ratio of TCR to GF and T<sub>min</sub> depends on the film resistance of thick film resistors. By varying the concentration of the conductive phase and the baking temperature, the film resistance of thick-film resistors can be controlled, and low-temperature strain gauges can be achieved for different ambient temperatures.

**Key words:** Thick film resistor, temperature coefficient of resistance (TCR); gauge factor (GF), doped silicate glass, RuO<sub>2</sub> metal oxide.

## ВОЗМОЖНОСТИ ИЗГОТОВЛЕНИЯ ТЕНЗОДАТЧИКА ИЗ СИЛИКАТНОГО СТЕКЛА, ЛЕГИРОВАННОГО ДИОКСИДОМ РУТЕНИЯ

Аннотация

В этой статье было систематически исследовано влияние компонентов резисторной пасты и температуры обжига на температурный коэффициент сопротивления (TCR) толстопленочного резистора. Исследованы толстопленочные резисторы, изготовленные из концентраций RuO<sub>2</sub> (от 10% до 30% по массе), прокаленных при различных температурах на подложке из Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>. Исследована взаимосвязь между сопротивлением резистора, TCR и масштабным коэффициентом (GF). Результаты показывают, что TCR также увеличивается с увеличением концентрации RuO<sub>2</sub> и температуры обжига. Вблизи минимума (T<sub>min</sub>) кривой сопротивление-температура температура оказывает наименьшее влияние на значение сопротивления, и толстопленочный резистор можно считать нечувствительным к температуре в определенном диапазоне. Отношение TCR к GF и T<sub>min</sub> зависит от сопротивления слоя толстопленочных резисторов. Изменяя концентрацию проводящей фазы и температуру обжига, можно контролировать пленочное сопротивление толстопленочных резисторов и получать низкотемпературные тензорезисторы для различных температур окружающей среды.

**Ключевые слова:** толстопленочный резистор, температурный коэффициент сопротивления (TCR); калибровочный коэффициент (GF), легированное силикатное стекло, оксид металла RuO<sub>2</sub>.

## RUTENIY DIOKSIDI BILAN LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADAN TENZODATCHIK YASASH IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada rezistorli pasta komponentlari va pishirish haroratining qalin qatlamli rezistorning qarshilik harorat koeffitsientiga (TCR) ta'siri tizimli ravishda o'rganildi. Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> tagligida turli xil temperaturalarda pishirilgan RuO<sub>2</sub> konsentratsiyasidan (10 wt% dan 30wt% gacha) tayyorlangan qalin qatlamli rezistorlar tekshirildi. Rezistorlar qarshiligi, TCR va o'lovch omili (GF) o'rtasidagi munosabatlar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, RuO<sub>2</sub> konsentratsiyasi va pishirish harorati ortishi bilan TCR ham ortadi. Qarshilik-harorat egri chizig'ining minimal (T<sub>min</sub>) yaqinida harorat qarshilik qiymatiga eng kam ta'sir qiladi va qalin qatlamli rezistor ma'lum bir diapazonda haroratga sezgir emas deb hisoblash mumkin. TCR ning GF va T<sub>min</sub>ga nisbati qalin qatlamli rezistorlarning qatlam qarshiligiga bog'liq. Supero'tkazuvchilar fazaning konsentratsiyasini va pishirish haroratini o'zgartirish orqali qalin qatlamli rezistorlarning qatlam qarshiligini nazorat qilish mumkin, so'ngra turli xil muhit haroratlari uchun past haroratlarni sezmaydigan tenzodatchiklarga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Qalin qatlamli rezistor, qarshilikning harorat koeffitsienti (TCR); o'lovch omili (GF), legirlangan silikat shisha, RuO<sub>2</sub> metal oksidi.

**Kirish.** So'nggi yillarda barqarorligi, deformatsiya sezuvchanligi va bir qator afzalliklari tufayli qurilish muhandisligi sohasiga qalin qatlamli rezistorlar deformatsiya datchiklari sifatida kirib kelmoqda [1,2]. Ideal tenzodatchik katta o'lovch omiliga ega bo'lishi va boshqa omillar datchikga ta'sir qilmasligi kerak. Biroq, aslida datchikga xalaqit beradigan boshqa omillar mavjud, masalan, elektromagnit maydonlar, harorat, namlik va boshqalar. Elektromagnit maydonlar va namlik muammosini tashqi muhitdan himoya qilish orqali hal qilish mumkin [3]. Tenzodatchiklarning sezgirlikni oshirish uchun umumiy usullar, haroratni qoplash texnologiyalaridan foydalanish [4] va haroratga sezgir bo'lmagan datchiklar rezistorlarini yaratish kerak [5]. Haroratni qoplash o'rni, haroratning sensorlarga ta'sirini kamaytirishning yana bir usuli – haroratga nisbatan kamroq sezgir bo'lgan materiallardan foydalanish. Shu nuqtai nazardan, tolali Bragg panjara datchiklari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Oldingi tadqiqotlar, asosan, panjara tuzilishini o'zgartirdi yoki juda past kengayish koeffitsientiga ega bo'lgan tagliklardan foydalangan holda haroratga sezgir bo'lmagan panjara oldi [6,7]. Haroratni qoplash texnologiyalari bilan taqqoslaganda, haroratga sezgir bo'lmagan datchiklar datchiklarning murakkabligini yoki olish texnologiyasini soddalashtirishi va datchikning sezgirlikni oshirishi mumkin. Qalin qatlamli rezistorlarning haroratga sezgir bo'lishi, rezistor qatlamining qalinligiga [8], rezistor pastalari tarkibiga [9], yoqish sharoitlariga [10,11], va taglik materiallariga qarab o'zgarishi mumkin[12].

Ushbu maqolada biz pasta tarkibiy qismlarini va haroratga nisbatan sezgir bo'lmagan qalin qatlamli rezistorlarni olish uchun pishirish sharoitlarini o'zgartirish orqali TCRni boshqarishimiz mumkin. Bunday qalin qatlamli rezistorlar to'g'ridan-to'g'ri ma'lum bir harorat oralig'ida qo'shimcha komponentlar va sxemalarsiz qo'llanilishi mumkin. Qalin qatlamli rezistorning qarshilik-temperatura egri chizig'i TCR ning qiymati 0 ga yaqin bo'lsa deyarli parabolik ko'rinishda bo'ladi [13]. Qarshilik-harorat egri chizig'ining eng past nuqtasida (T<sub>min</sub> haroratda) qalin qatlamli rezistor haroratga sezgir emas deb hisoblanadi.

Ushbu ish qalin qatlamli rezistorlarning qarshilik-temperatura xususiyatlarini tizimli o'rganishni talab qiladi. Haroratning qalin qatlamli rezistorning qarshilik qiymatiga ta'siri ikki jihatni o'z ichiga oladi: harorat o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan qalin qatlamli rezistor qarshiligining o'zgarishi; qarshilik qatlami va taglik o'rtasidagi issiqlik kengayish koeffitsienti farqi natijasida yuzaga kelgan termal deformatsiya. Qarshilikning o'zgarishi asosiy o'tkazuvchanlik mexanizmlarini o'z ichiga oladi, jumladan, tunnel modeli [13], sakrab o'tish nazariyasi [14], tor o'tkazuvchanlik diapazonlari va omik kontaktlar [15]. Biroq, aniq bir nazariya aniqlanmagan, ammo 96% li  $Al_2O_3$  taglikga  $RuO_2$  asosida tayyorlangan qalin qatlamli rezistorlarning haroratga bog'liqligi sakrab o'tish nazariyasiga mos kelishi haqida keng tarqalgan eksperimental dalillar mavjud [16]. Qarshilik va harorat o'rtasidagi munosabat quyidagi tenglama bilan ifodalanishi mumkin:

$$R = R_0 \sqrt{T} \exp(T_0/T)^{1/4} \quad (1)$$

bu yerda  $T_0$  quyidagicha aniqlanadi:

$$T_0 = \frac{16\alpha^3}{kN_0} \quad (2)$$

Bu erda  $k$  - Bolsman doimiysi,  $N_0$  - o'tkazuvchan zarrachalarning hajm va energiya birligidagi zichligi,  $\alpha$  - zarracha hajmi va shisha xususiyatlariga bog'liq parametr. Qarshilik-harorat qiymatlari (1) ifoda bilan hisoblash orqali qarshilik harorati egri chizig'ining eng past nuqtasidagi haroratni aniqlash mumkin, bu datchiklarning haroratga sezgir bo'lmagan diapazonini olishga yordam beradi.

**Material va metodlar.** Ushbu tadqiqot O'zbekiston Milliy universiteti Fizika fakulteti Nanokompzitsion materiallar ilmiy laboratoriyasida professor o'qituvchi, tayanch doktorantlar va ilmiy xodimlar tomonidan amalga oshirildi. Tadqiqot obekti sifatida konsentratsiyasi 10-30%  $RuO_2$  metal oksidi va qo'rg'oshin borosilikat shisha kukunlari aralashmasidan tayyorlangan rezistor olindi. Bunda  $RuO_2$  metal oksidiga qo'rg'oshin borosilikat shisha kukunlari aralashtirilib vaqtinchalik shakl hosil qiluvchi va namuna pishirish jarayonida uchib chiqib ketadigan aralashma aralashtirilib gel ko'rinishidagi pasta hosil qilindi. Hosil bo'lgan pasta trafaret yordamida keramik taglikka o'tqazildi. Tayyor bo'lgan rezistorli pastalar pechda quritilib 10 daqiqa davomida turli haroratlarda ( $750^\circ C$ ,  $850^\circ C$  va  $950^\circ C$ ) pishirildi. Natijada hosil bo'lgan qalin qatlamli rezistor normalashtirilgan qarshilik koeffitsiyentining haroratga bog'liqligi, TCR ning  $RuO_2$  konsentratsiyasiga bog'liqligi o'rganildi va eksperimental natijalarni sakrab o'tish-perkolatsiya modeliga moslashtirildi.

#### Tajriba.

**Namuna tayyorlash.** Ushbu maqolada laboratoriyada ishlab chiqarilgan  $RuO_2$  rezistorli pastasi ishlatildi. Pastalarning asosiy tarkibiy qismlari konsentratsiyasi 10-30%  $RuO_2$  zarralari va qo'rg'oshin borosilikat shisha kukunlaridan tayyorlangan. Organik vosita ushbu ikki kukun aralashmasiga qo'shildi va oxirgi rezistorli pastalar yaxshilab aralashtirildi. Keyin rezistorli pastalar 10 daqiqa davomida turli haroratlarda ( $750^\circ C$ ,  $850^\circ C$  va  $950^\circ C$ ) pishirildi. Har bir holat uchun uchta qalin qatlamli rezistor namunasi mavjud.

**Xususiyatlarni o'lchash.** Batafsil harorat xarakteristikasi ma'lumotlarini olish uchun qalin qatlamli rezistorning qarshilik qiymatlari  $10^\circ C$ ,  $25^\circ C$  va  $125^\circ C$  haroratlarda o'lchandi. TCR ning qiymatlari (3) tenglama bilan hisoblandi. [10].

$$TCR = \frac{R_{125} - R_{25}}{(125 - 25)R_{25}} \times 10^6 \text{ (ppm}/^\circ C) \quad (3)$$

Bu erda  $R_{25}$  -  $25^\circ C$  dagi qarshilik,  $R_{125}$  -  $125^\circ C$  da qarshilik.

Turli qarshilik qiymatlari bilan TFR ning qarshilik-temperatura xususiyatlarini taqqoslashni osonlashtirish uchun qarshilik qiymatlari quyidagicha normalashtirildi:

$$R_N = \frac{R(T) - R_{25}}{R_{25}} \quad (4)$$


Bu erda  $R_N$  - normalashtirilgan qarshilik koeffitsiyenti,  $R(T)$  -  $T$  haroratda o'lchangan qarshilik.

O'lchov omilini o'lchash uch nuqtali egilish testi orqali amalga oshirildi [17]. Uch nuqtali egilish yuki bilan qalin qatlamli rezistorlarning nisbiy qarshilik o'zgarishi ( $\Delta R$ ) o'lchandi va qalin qatlamli rezistorning deformatsiyasi ( $\epsilon$ ) uch nuqtali egilish uchun nazariy formula bo'yicha hisoblab chiqildi. Shunday qilib, qalin qatlamli rezistorlarning GF (5) formula yordamida aniqlanadi.

$$GF = \frac{\Delta R/R}{\epsilon} \quad (5)$$

Bu erda  $R$  - rezistorning qarshiligi,  $\Delta R$  - deformatsiya natijasida yuzaga keladigan qarshilik o'zgarishi va  $\epsilon$  - deformatsiya.

**Natijalar.** Ushbu qismda  $RuO_2$  metal oksidining 10-30% konsentratsiyasiga ega qalin qatlamli rezistorlarning qarshilik-temperatura xususiyatlari muhokama qilindi. Namuna  $850^\circ C$  da 10 daqiqa davomida ushlab turildi. Tayyor bo'lgan qalin qatlamli rezistorning normalashtirilgan qarshilik koeffitsiyentining past haroratlarda ( $0^\circ C$  dan  $160^\circ C$  gacha) o'zgarishi va TCR ning  $RuO_2$  konsentratsiyasiga bog'liqligi o'rganildi (1-rasm).



1-rasm.(a) Normalashtirilgan qarshilik koeffitsiyentining haroratga nisbatan; (b) TCR ning  $RuO_2$  konsentratsiyasiga nisbatan bog'liqligi

1a-rasmida ko'rsatilganidek, qalin qatlamli rezistorlarning normalashtirilgan qarshilik koeffitsiyenti past haroratlarda ( $0^\circ C$  dan  $160^\circ C$  gacha) haroratning oshishi bilan asosan to'g'ri chiziqlar bo'ylab o'zgaradi. Turli xil  $RuO_2$  konsentratsiyasiga ega qalin qatlamli rezistorlarning haroratga sezgirliigi ham har xil bo'ladi.  $RuO_2$  konsentratsiyasi past bo'lganda (10,15%), qalin qatlamli rezistorlar salbiy qarshilik-temperatura xususiyatlarini ko'rsatadi, normalashtirilgan qarshilik koeffitsiyenti harorat oshishi bilan kamayishini ko'rishimiz mumkin. Boshqa tomondan, yuqori  $RuO_2$  konsentratsiyasiga ega bo'lgan qalin qatlamli rezistorlarning qarshilik-harorat ko'rsatkichlari ijobiylikni ko'rishimiz mumkin. Supero'tkazuvchi fazaning konsentratsiyasi oshgani sayin, qarshilik va harorat o'rtasidagi salbiy munosabat musbatga aylanadi. 1b-rasmida qalin qatlamli rezistorlarning TCRlari  $RuO_2$  konsentratsiyasining funksiyasi sifatida chizilgan. Qalin qatlamli rezistorlarning TCRlari -200 dan 600 ppm/ $^\circ C$  gacha bo'lgan soxada  $RuO_2$  konsentratsiyasining ortishi bilan ortadi. Bu vaqtda harorat o'zgarishi bilan qalin qatlamli rezistorlarning qarshilik qiymati o'zgarishsiz qoladi.

Demak namuna 10 daqiqa davomida  $850^\circ C$  da pishirilsa, 15%  $RuO_2$  bo'lgan qalin qatlamli rezistorlar haroratga eng kam sezgir rezistor bo'ladi. Rezistor pastalarining  $RuO_2$  konsentratsiyasini o'zgartirish orqali haroratga sezgirlikni keng diapazonda o'zgartirish mumkin, ammo TCR ni 0 ga yaqin qilish qiyin.

**Xulosa.** Har xil  $RuO_2$  konsentratsiyasidan tayyorlangan qalin qatlamli rezistorlar  $Al_2O_3$  tagligida har xil pishirish haroratlarda pishirildi. Qalin qatlamli rezistorning harorat xarakteristikalari, o'lchov omili va qatlam qarshiligi o'rganildi. Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari quyidagicha umumlashtiriladi:

- TCR ning qiymati  $RuO_2$  konsentratsiyasini va pishirish haroratini o'zgartirish orqali boshqarilishi mumkin. TCRning qiymati  $RuO_2$  konsentratsiyasi va pishirish haroratining oshishi bilan ortadi. Xuddi shu taglik va bir xil rezistorlar seriyasini ko'rib chiqayotganda, TCR oxir-oqibat qalin qatlamli rezistorlarning qatlam qarshiligiga bog'liq ekanligi aniqlandi

- Turli qatlam qarshiligiga ega qalin qatlamli rezistorlarni tanlash orqali qarshilik harorati egri chizig'ining eng past nuqtasini ( $T_{min}$ ) sozlash mumkin. Shunday qilib, turli xil muhit haroratlari uchun past haroratlarni sezmaydigan tenzodatchiklarga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. S.A.A. Jabir, N.K. Gupta, Condition monitoring of the strength and stability of civil structures using thick film ceramic sensors, *Measurement*.46 (7) (2013) 2223-2231.
2. X. Guan, M. Wen, H. Li, J. Ou, Strain sensor made by thick-film resistors on substrates of glass ceramic, in: 11th IWSHM2017: Real-Time Material State Awareness and Data-Driven Safety Assurance, Vol. 2, DEStech Publications, Stanford, CA, United states, 2017, pp. 1961-1968.
3. Z. Zhou, J. Ou, Techniques of temperature compensation for FBG strain sensors used in long-term structural monitoring, in: *Fundamental Problems of Optoelectronics and Microelectronics II*, Vol. 5851, SPIE, 2005, pp.
4. V. Sundararaman, V.T. Rathod, D.R. Mahapatra, Temperature compensation in CNT-composite distributed strain sensors, in: *SPIE Smart Structures and Materials Nondestructive Evaluation and Health Monitoring*, Vol. 9436, SPIE, 2015, pp. 7.
5. X. Dong, X. Yang, C.-L. Zhao, L. Ding, P. Shum, N.Q. Ngo, A novel temperature-insensitive fiber Bragg grating sensor for displacement measurement, *Smart Materials and Structures*.14 (2) (2005) N7-N10.
6. M. Song, B. Lee, S.B. Lee, S.S. Choi, Interferometric temperature-insensitive strain measurement with different-diameter fiber Bragg gratings, *Opt. Lett.*22 (11) (1997) 790-792.
7. V. Bhatia, D.K. Campbell, D. Sherr, T. D'Alberto, N. Zabaronick, G.A.T. Eyck, K.A. Murphy, R.O. Claus, Temperature-insensitive and strain-insensitive long-period grating sensors for smart structures, *Optical Engineering*.36 (7) (1997) 1872-1876, 1875
8. Y.L. Zheng, J. Atkinson, R. Sion, Z.G. Zhang, A study of some production parameter effects on the resistancetemperature characteristics of thick film strain gauges, *J Phys D Appl Phys*.35 (11) (2002) 1282-1289.
9. M. Hrovat, A. Bencan, D. Belavic, J. Holc, G. Drazic, The influence of firing temperature on the electrical and microstructural characteristics of thick-film resistors for strain gauge applications, *Sensor Actuat a-Phys*.103
10. K. Adachi, H. Kuno, Effect of glass composition on the electrical properties of thick-film resistors, *Journal of the American Ceramic Society*.83 (10) (2000) 2441-2448.
11. L. Joon, R. Vest, Firing Studies With a Model Thick Film Resistor System, *IEEE Transactions on Components, Hybrids, and Manufacturing Technology*.6 (4) (1983) 430-435.
12. H. Tian, H.-t. Liu, H.-f. Cheng, Microstructural and electrical properties of thick film resistors on oxide/oxide ceramic-matrix composites, *Ceramics International*.41 (2) (2015) 3214-3219.
13. G.E. Pike, C.H. Seager, Electrical properties and conduction mechanisms of Ru-based thick-film (cermet) resistors, *Journal of Applied Physics*.48 (12) (1977) 5152-5169.
14. N.F. Mott, Conduction in glasses containing transition metal ions, *Journal of Non-Crystalline Solids*.1 (1) (1968) 1-17.
15. R.M. Scarisbrick, Electrically conducting mixtures, *Journal of Physics D: Applied Physics*.6 (17) (1973) 2098.
16. A. Cattaneo, M. Cocito, F. Forlani, M. Prudenziati, Influence of the Metal Migration From Screen-and-Fired Terminations on the Electrical Characteristics of Thick-Film Resistors, *ElectroComponent Science and Technology*.4 (3-4) (1977) 205-211.
17. J. Shah, Strain Sensivity of Thick-Film Resistors, *IEEE Transactions on Components, Hybrids, and Manufacturing Technology*.3 (4) (1980) 554-564.



Avazbek DEXQONOV,  
O'zMU Fizika fakulteti tayanch doktoranti  
E-mail: dexqonovavazbek1993@gmail.com  
Gulmurza ABDURAXMONOV,  
O'zMU Fizika fakulteti professori

Fizika-matematika fanlari doktori, professor B.Umirzakov taqrizi asosida

PHYSICAL PARAMETERS OF SILICATE GLASS DIFFUSED WITH RuO<sub>2</sub>  
Anotation

This article discusses the diffusion processes, diffusion zones, percolation theory, activation energies, and their analysis based on the results of diffusing metal oxides, primarily RuO<sub>2</sub>, into lead silicate glass under various conditions. The doping of silicate glass significantly alters all its physical parameters. The obtained results can lead to important innovations in the development of thick-film resistors, various strain sensors, and cost-effective thermoelectric materials. The physics of this process has been extensively explored in this study.

**Key words:** diffusion zone, lead-silicate glass, ruthenium dioxide, specific resistance, percolation theory, nanocrystals, structural transitions, infinite cluster.

ФИЗИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ СИЛИКАТНОГО СТЕКЛА, ДИФФУЗИРОВАННОГО С RuO<sub>2</sub>  
Аннотация

В данной статье рассматриваются процессы диффузии, диффузионные зоны, теория перколяции, энергии активации и их анализ на основе результатов диффузии оксидов металлов, главным образом RuO<sub>2</sub>, в свинцово-силикатное стекло при различных условиях. Легирование силикатного стекла приводит к значительным изменениям всех его физических параметров. Полученные результаты могут открыть новые перспективы в разработке толстопленочных резисторов, различных тензодатчиков и доступных термоэлектрических материалов. Физика этого процесса детально исследована в рамках данной работы.

**Ключевые слова:** зона диффузии, свинцово-силикатное стекло, диоксид рутения, удельное сопротивление, термоЭДС, теория перколяции, нанокристаллы, структурные переходы, бесконечный кластер.

RuO<sub>2</sub> BILAN DIFFUZIYALANGAN SILIKAT SHISHANING FIZIK PARAMETRLARI  
Annotatsiya

Ushbu maqolada qo'rg'oshin silikat shishaga metal oksidlari asosan RuO<sub>2</sub> bilan turli sharoitlarda diffuziyalash natijalari asosida uning diffuziya jarayonlari, diffuziya zonalarini, sizib o'tish nazariyasi, aktivatsiya energiyalari hamda uning tahlillari haqida so'z boradi. Silikat shisha legirlash natijasida uning barcha fizik parametrlari tubdan o'zgaradi. Olingan natijalar orqali qalin qatlamli rezistorlar, turli tenzo datchiklar, arzon termoelektrik materiallar olishda muhim yangi natijalar olish mumkin. Bu jarayon fizikasi keng miqyosda ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** diffuziya zonasi, qo'rg'oshin-silikat shisha, ruteniy dioksidi, solishtirma qarshilik, termoEYuK, sizib o'tish nazariyasi, nanokristallar, struktura o'tishlari, cheksiz klaster.

**Kirish.** Legirlashgan shishaning elektr o'tkazuvchanligini ta'minlashda legirovchi metall atomlarining to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishiga qarshi asosiy dalil sifatida bu metallarni qo'rg'oshin-silikat shishasida past eruvchanlikka ega ekanligi ko'rsatiladi. Misol sifatida, [1] ishida EXAFS usuli va rentgen diffraksiyasi yordamida o'tkazilgan tadqiqotlarni batafsil ko'rib chiqamiz. Ushbu tadqiqotlarda dastlab RuO<sub>2</sub> qisman shishada erishi, ammo keyinchalik sovetlash jarayonida klasterlar shaklida cho'kib qolishi aniqlangan. Ushbu klasterlarning o'lchami 20-30 Å deb baholangan va RuO<sub>2</sub> kukuni yuzasining mayda zarraligi kamaygan sari ularning o'lchami oshgan. Kuzatilgan elektr xususiyatlari (masalan, donadorlararo elektronlarning o'tishi orqali o'tkazuvchanlikni ta'minlovchi cheksiz klasterlar hosil bo'lishi) ushbu klasterlarning hosil bo'lishi bilan izohlanadi. Bunda Adachi [2] ishi asosida RuO<sub>2</sub> va shisha o'zaro ta'sirining asosiy mexanizmi diffuziya emas, balki erish jarayoni ekani ta'kidlanadi.

Biroq, yanada chuqurroq tahlil shuni ko'rsatadiki, 20-30 Å o'lchamdagi tuzilmalar erigan ruteniy atomlaridan hosil bo'lib sovetlash jarayonida cho'kib qolgan klasterlar emas, balki legirlashda ishlatilgan dastlabki RuO<sub>2</sub> zarrachalarining o'zida mavjud (yoki yuzaga kelgan) bo'lishi ehtimoli katta. Bunga ikki sabab bor:

1. Rentgen diffraksiyasi ushbu o'lchamdagi kogerent tarqalish sohalarini aniqlashi mumkin, ammo bu sohalarning qanday atomlardan iborat ekanligini aniqlay olmaydi.

2. EXAFS usuli esa bunday sohalarning mavjudligini aniqlashi va qaysi atomlar atrofida hosil bo'layotganini aniqlashi mumkin. Xususan, Meneghini va boshqalarning [1] keltirilgan ishida EXAFS spektrlari aynan ruteniy atomlariga nisbatan olingan. Ammo shishada ruteniyning past eruvchanligi ikki xil rol o'ynagan:

Natijada, EXAFS spektrlarida asosan dastlabki holatini saqlab qolgan RuO<sub>2</sub> aks etadi. Klasterlar esa ushbu spektrlarda (taxminan 1% yoki undan kamroq amplitudada, ruteniyning shishadagi eruvchanligidan kelib chiqib) sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Afsuski, bunday o'zgarishlarni usulning mavjud aniqligi bilan izohlashning imkoni yo'q. Ushbu holatda yuqorida ta'kidlangan klasterlarni RuO<sub>2</sub> kukun zarrachalarining polikristalli tuzilishi natijasi sifatida ko'rish mumkin [3].

Faraz qilaylik [4], [5], shisha elektr o'tkazuvchanligi legirlash jarayonida ligatura atomlarining shishaga diffuziyasi tufayli oshadi. Ligaturaning har bir zarrachasi atrofida diffuziya zonasi hosil bo'ladi, va cheksiz klaster endi ligatura zarrachalaridan emas, balki diffuziya zonalaridan iborat bo'ladi. Elektron mikroskopik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maydalash jarayonida ligatura zarrachalari radiusi - r ga yaqin sferik shaklni qabul qiladi. Shishaning o'zi izotrop muhitdir. Shuning uchun diffuziya jarayoni ham izotrop bo'ladi va diffuziya zonasi sferik bo'ladi (1 va 2-rasmlar). Ushbu zonasining hajmi

$$V_d = \frac{4\pi}{3}(l_d + r)^3 \quad (1)$$

eng oddiy holatda, T<sub>r</sub> haroratda, vaqt davomida τ, ligatura atomlari masofaga diffuziya qiladi



$$l_d = \sqrt{D\tau} = \sqrt{D_0\tau} \exp\left(-\frac{E_a}{2kT_f}\right) \quad (2)$$


$E_a$  – diffuziya jarayonining aktivatsiya energiyasi,  $D_0 = D(T_f \rightarrow \infty)$ ,  $k$  – Bolsman doimiysi. Chunki  $C = V_d / V_0$  va  $C_c = V_c / V_0$ , oqish nazariyasining [6-9] asosiy tenglamasini elektr o'tkazuvchanlik uchun quyidagicha yozish mumkin:

$$\sigma(V) = V_0^{-t} \sigma_0 (V - V_c)^t \quad (3)$$

bu yerda ( $V_c$ ) – diffuziya zonasining kritik hajmi, ( $V_p$ ) – ligaturaning har bir zarrachasiga to'g'ri keladigan namunaviy hajm. (1) va (2) ni (3) ga qo'yib, oddiy algebraik o'zgartirishlardan so'ng quyidagiga ega bo'lamiz:


$$\ln \left\{ l_{d0} / \left( \sqrt[3]{\frac{3V_0}{4\pi} ((\rho / \rho_0)^{-1/t} + \frac{V_c}{V_0}) - r} \right) \right\} = \frac{E_a}{2kT} \quad (4)$$

Bu yerda  $l_{d0} = \sqrt{D_0\tau}$ ,  $\rho_0 = 1 / \sigma_0$  – butun hajm legirlangan shisha (diffuziya zonasi) bilan to'ldirilgan holatda namunaviy solishtirma qarshilikni anglatadi, va moslashtirish parametri rolini bajaradi.



1-rasm. Ligatura zarrachalari va diffuziya zonasi modeli (sxematik tarzda). Ligatura zarrachalari o'rtacha  $r$ -radiusga ega, diffuziya zonasi esa  $r + l_d$ .

2-



Diffuziya natijasida legirlangann shishada oqish darajalarining hosil bo'lishi ( $T_1 > T_2 > T_3$ ),  $\tau = const$ .

Ifoda (4) bizga diffuziya jarayonining aktivatsiya energiyasi  $E_a$  ni va diffuziya uzunligini  $l_d$  legirlash vaqti o'zgarmas bo'lganda,  $T_f$  haroratiga bog'liq holda aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, (4) ifodasi [10] turli xil shisha turlari, ligaturalar va legirlash rejimlari, shuningdek, kukunlarning dispersivligi uchun oqish chegarasi  $R(C)$  qanday va qanchalik o'zgarishi mumkinligini tushuntiradi. Darhaqiqat:

1) Shisha tarkibi va tuzilmasining o'zgarishi, shuningdek, ligatura turi bir xil legirlash rejimida diffuziya koeffitsienti  $D(T_f) = D_0 \exp(-E_a / kT_f)$  va diffuziya uzunligini  $l_d = \sqrt{D\tau} = \sqrt{D_0\tau} \exp(-E_a / 2kT_f)$  o'zgartiradi, bu esa shishaga nisbatan yuqori elektr o'tkazuvchanlikka ega diffuziya zonasining hajmiy ulushining o'zgarishiga olib keladi.

2) Ligatura kukuni qancha mayda bo'lsa, legirlangan shisha hajm birligidagi uning zarrachalari soni shuncha ko'p bo'ladi va ular orasidagi o'rtacha masofa shunchalik kichik bo'ladi. Shu sababli, bu masofani ligaturaning diffuziya qiluvchi atomlari bilan qoplash va diffuziya zonalaridan cheksiz klaster hosil qilish uchun boshqa barcha sharoitlar bir xil bo'lganda, kamroq diffuziya vaqti talab etiladi.

1-jadval. Qo'rg'oshin-silikat shishalarida ligatura atomlari uchun diffuziya koeffitsientlari va aktivatsiya energiyalari, shuningdek, diffuziya uzunliklari [4]-[10].

Legirlangan shisha namunasi	Shisha	Legirlangan shisha tarkibi, mass. %		Ligatura	$E_a$ , eV	$D_0$ , $\text{cm}^2/\text{s}$	$l_d$ , $\text{cm}$ , $T_f=1123 \text{ K}$ da
		shisha	ligatura				
1	B-17M1	80	20	PbRuO <sub>3</sub>	1.08	$5.65 \cdot 10^{-8}$	$2.2 \cdot 10^{-5}$
2	B-17M1	90	10	RuO <sub>2</sub>	0.624	$9.48 \cdot 10^{-6}$	$3.0 \cdot 10^{-3}$
3	B-17M2	90	10	RuO <sub>2</sub>	0.194	$5.74 \cdot 10^{-4}$	0.125
4	B-17M2	80	20	RuO <sub>2</sub>	0.212	$4.1 \cdot 10^{-4}$	0.166

**Natijalar.** Endi legirlash darajasi va legirlash vaqti, ligatura zarralarining o'lchamlari legirlashgan shisha namunasi elektr o'tkazuvchanligiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz [11]. Ligatura atomlarining shishada diffuziyasi, diffuziya zonasi hajmiga teng bo'lgan zarrachalardan sodir bo'ladi va tashqi manbadan diffuziant oqimi yo'q. Shuning uchun diffuziya jarayonini cheklangan manbadan sodir bo'layotgan deb hisoblash mumkin [12], va Fik tenglamasidan foydalanish mumkin:

$$\frac{\partial N(x, \tau)}{\partial \tau} = D \frac{\partial^2 N(x, \tau)}{\partial x^2} \quad (5)$$

Diffuziya profili quyidagi funksiya bilan tavsiflanadi


$$N(x, \tau) = \frac{N_0}{2} \left\{ \text{erfc} \frac{x-r}{2\sqrt{D\tau}} - \text{erfc} \frac{x+r}{2\sqrt{D\tau}} \right\} \quad (6)$$

Bu yerda  $N_0$  – ligatur atomlarining donadagi konsentratsiyasi,  $r$  – ligatur donasining radiusi,  $\text{erfc}(x, \tau)$  – xatolik funksiyasining qo'shimcha qismi,  $\tau$  – legirlash jarayonining davomiyligi. Diffuziya jarayoni uchun eng xususiy va eksperimental tekshiruv uchun qulay bo'lgan narsa diffuziya uzunligining vaqtga bog'liqligi hisoblanadi.

Diffuziya haroratiga bog'liq qarshilikka bog'liqlik uchun (yuqorida qarang, (4) ifodasi) qilinganidek, legirlashgan shishaning diffuziya jarayonining davomiyligiga bog'liq qarshilik  $R(\tau)$  uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$(R/R_0)^{-1/t} = \frac{4\pi}{3V_0} (\sqrt{D\tau} + r)^3 - C_c \quad (7)$$


Legirlashgan shisha holatida, L masofasi bilan ajralgan qo'shni ligatur zarrachalari diffuziya jarayonining ikki cheklangan manbai sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, ularning diffuziya oqimlari bir-biriga qarshi yo'nalgan. Shunday qilib, ligatur konsentratsiyasining ularning orasidagi taqsimlanishi vaqtning turli paytlarida, ligatur zarrachalarining ikki diametri va uning doimiy hajm kontenti uchun 5.5-rasmda ko'rsatilgan shaklga ega bo'ladi.




3-rasm. Ligatura atomlari konsentratsiya profili ikki ligatura zarrachasi orasida vaqtning quyidagi momentlarida:  $\sqrt{D\tau_1} = 0,05$ ;  $\sqrt{D\tau_2} = 0,3$ ;  $\sqrt{D\tau_3} = 0,55$ ;  $\sqrt{D\tau_4} = 0,8$ ;  $\sqrt{D\tau_5} = 1,05$ .

Ligatura zarrachalari radiusi (mkm): 0,5 (a); 1 (b). Zarrachalar markazlari orasidagi masofa – 5 mkm.

**Muhokama.** Diffuziya natijasida hosil bo'lgan diffuziya zonasi legirlashgan shisha namunasining barcha qismiga teng taqsimlanadi. Elektr o'tkazuvchanlik, shu diffuziya zonasida joylashgan turli zaryadli ligatura ionlari o'rtasidagi elektron almashinuvi orqali amalga oshiriladi, ya'ni tashuvchi zarralarning o'zining impuritet ostizona ichidagi harakati orqali. Shunday qilib, aynan ushbu impuritet ostizonaning eni  $m^*$  tashuvchi zarralarning samarali massasini belgilaydi: zona qanchalik tor bo'lsa,  $m^*$  shuncha katta bo'ladi [13]. Legirlashgan shisha holatida, ligaturaning shishadagi eruvchanligi yoki diffuziya legirlash darajasi past bo'lganda (taxminan 7% yoki kamroq, yuqoriga qarang), ligaturaning qo'shni atomlari orasidagi o'rtacha masofa o'zining shisha atomlari orasidagi masofaga nisbatan katta bo'lib, ligatur qo'shni atomlarining to'liq funksiyalarining qoplam integrali kichik bo'ladi. Bu tor impuritet ostizoni va erkin tashuvchi zarralarning katta samarali massasiga olib keladi.



4-rasm. Kontaktlarga ega legirlangan shisha namunasi va cheksiz klaster (sxematik tarzda). 1 – taglik (96%  $Al_2O_3$ ), 2 – kontaktlar (kumush-vismut), 3 – o'lik uchlar, 4 – legirlangan shisha qatlamidagi kovaklar, 5 – legirlangan shisha, 6 – cheksiz klaster.



5-rasm. Legirlangan shisha namunasining qarshiligi kesilgan kovaklar soniga bog'liqligi.

Bizning nazarimizcha, ushbu maksimumning paydo bo'lishini ligatur zarrachalari orasidagi o'rtacha masofaning (sakrash yoki tunel qilish uzunliklari) o'zgarishi bilan izohlash mumkin emas, chunki alyuminiy oksidi asosining issiqlik kengayish koeffitsienti  $8,4 \times 10^{-6} K^{-1}$  C71-K shishasining esa  $7 \times 10^{-6} K^{-1}$  ga teng. Bu 700 K (o'tkazuvchanlikning pasayishi boshlanishi) dan 1000 K gacha bo'lgan harorat o'zgarishi bilan yuqorida aytilgan masofaning  $8,4 \times 10^{-6} \times 300 = 2,5 \times 10^{-3} = 0,25\%$ ga o'zgarishiga olib keladi. Bu yerda biz atrofdagi atomlar orasidagi masofaning o'zgarishi asosining issiqlik kengayishi natijasida yuz berishini qabul qildik, chunki plenka qalinligi asos qalinligidan deyarli 20 barobar kam, va oxirgisining Yung moduli qatlam modulidan sezilarli darajada yuqoriroq. Shu bilan birga, tunel qilish (sakrash) ehtimoli va namunani o'tkazuvchanligi  $e^{-0,0025} = 1,0025$  martaga o'zgaradi, bu eksperimentda kuzatilganidan deyarli 4 tartib kichikroq. Bunday farq yana bir bor ko'rsatadiki, legirlashgan shishaning o'tkazuvchanligi ligatura zarrachalaridan iborat uzluksiz zanjirlar (cheksiz klaster) hosil bo'lishidan ko'ra, boshqa omillar (xususan, shishaning diffuziya legirlashishi natijasida o'tkazuvchi bo'lishi) bilan bog'liq.

**Xulosa.** Shisha va ligatur kukunlari aralashmasining legirlash paytida ligatura atomlarining shishada diffuziyasi sodir bo'ladi. Shishada hosil bo'lgan diffuziya zonalari, shishaga nisbatan yuqori (shishaga nisbatan) o'tkazuvchanlik va ligaturaga nisbatan katta hajmga ega bo'lib, diffuziya mavjud bo'lmagan holatga nisbatan kamroq ligatura tarkibida cheksiz klasterni hosil qilishi mumkin. Ligatura atomlarining diffuziya uzunligi va shu bilan birga diffuziya zonasi hajmi harorat va diffuziya davomiyligi oshishi bilan o'sadi, shuningdek, shisha va ligatura tarkibiga bog'liq bo'ladi.

1. O'tkazuvchanlik sohasining (legirlangan sohaslar) hajmini harorat, davomiylik va legirlash darajasi, shuningdek, ligatura zarrachalarining o'lchamlari bilan bog'laydigan ifodalar olinib, legirlashgan shishaning o'ziga xos qarshiligini o'lchash orqali diffuziya jarayonining parametrlarini (diffuziya koeffitsienti, faollashish energiyasi va diffuziya uzunligi) aniqlash mumkin bo'ldi. Natijada, o'tkazilish egrisining nazariy qiymatiga nisbatan legirlash darajasi (ligatura tarkibi) pastroq darajaga siljiydi.

2. Muayyan sharoitlarda diffuziya zonasi namunani butun hajmiga egallashi mumkin, va bu holda o'tkazilish darajalari va cheksiz klaster haqida gapirish ma'nosiz bo'ladi, balki legirlashgan shishani yuqori o'tkazuvchanlikka ega yangi material sifatida ko'rib chiqish kerak. Aynan ligatura atomlarining diffuziyasi o'tkazilish egrisining legatura tarkibini kamaytirishga yoki ushbu egri yo'qligiga olib kelishini, shishaning va ligaturaning tarkibi, legirlash davomiyligi va harorati parametrlariga ta'sirini tushuntiradi; bu legirlashgan shishadan nominal aniqlik va bo'linish koeffitsienti  $\pm 0,01$  % dan yaxshiroq rezistorlar va kuchlanish bo'luvchilarini ishlab chiqishga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Aburakhmanov G., Amanov Sh. High voltage ceramic isolators with resistive layer for potential linearizing// Proceedings 7- ISAM, September 2001. – Islamabad (Pakistan), 2001. -pp. 84-89.
2. Абдурахманов Г., Абдурахманова Н.Г., Вахидова Г.С. О состоянии частиц двуокиси рутения в толстоленочных резисторах // Фундаментальные и прикладные вопросы физики: Материалы международной конференции. - Ташкент, 2006. - С. 331-335.
3. Абдурахманов Г. Влияние диффузии на порог протекания в толстоленочных резисторах // Uzbek Journal of Physics. – Tashkent, 2009. – vol. 11, N 3. - pp. 207-211.
4. Абдурахманов Г., Вахидова Г. С. Диффузия и электропроводность в толстоленочных резисторах // ДАН РУз - Ташкент, 1995. - №1. – С. 19-21.
5. Абдурахманов Г., Вахидова Г. С. Диффузия и электропроводность в толстоленочных резисторах // ЖТФ. – С.-Петербург, 1995. - Т. 65, в.7. – С. 187-190.
6. Займан Дж. Модели беспорядка. Пер. с англ. – М.: Мир, 1982. – 592 с.
7. Бонч-Бруевич В. Л., Звягин И. П., Кайпер Р., Миронов А. Г., Эндерлайн Р., Эсер Б.-М. Электронная теория неупорядоченных полупроводников / Под ред. В. Л. Бонч-Бруевича - М.: Наука, 1981. – 384 с.
8. Шкловский Б.И., Эфрос А.А. Электронные свойства легированных полупроводников. – М.: Наука, 1979. – 416 с.
9. Мотт Н., Дэвис Э., Электронные процессы в некристаллических веществах. В 2-х т. Пер. с англ. – М.: Мир, 1982. – 664 с.
10. Abdurakhmanov G., Vakhidova G. Diffusion of RuO<sub>2</sub> and PbRuO<sub>3</sub> into Lead Silicate Glasses // MRS Fall Meeting, Boston, USA, 27 November - 1 December 1995.
11. [11]. Донован Р. П., Смит А. М., Бэрри Б. М. Окисление, диффузия, эпитаксия / Под ред. Бургера Р. и Донована Р. Пер. с англ. – М.: Мир, 1969. – 451 с.
12. Lee J., West R.W. Firing studies with model thick film resistor systems // IEEE Trans. Comp. Hybrids and Manufact. Technol. – Urbana (IL, USA), 1983. – vol. CHMT-6, N 4. - pp. 430-435.
13. Фельц А. Аморфные и стеклообразные неорганические твердые тела. Пер. с нем. - М.: Мир, 1986. – 558 с.



UDK: 546.28 + 546.89 + 669.018 + 539.2

**Xalmurat ILIYEV**,  
Toshkent davlat texnika universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori  
**Mamasobir TURSUNOV**,  
Termiz davlat universiteti dotsent v.b., fizika-matematika fanlari falsafa doktori  
**Shaxvoz QARSHIYEV**,  
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: mtursunov@tersu.uz

PhD, dotsent O.Musayev taqrizi asosida

## BINARY NICKEL AND SELENIUM ALLOYED TO SILICON INTERACTION OF COMPLEXES

Аннотация

The research results of silicon doped with Ni and Se atoms are presented. Incorporation of nickel was sputtered onto the silicon surface followed by a "low temperature" diffusion method at  $T=1150^{\circ}\text{C}$  for 0.5 hours. Additional thermal treatment of samples doped with Ni and Se was carried out in the same way ( $T = 820^{\circ}\text{C}$ , for 0.5 hours). The composition of the samples was studied using SEM (Scanning Electron Microscope). The change in properties of Si<Ni, Se> was explained by the formation of binary complexes of nickel and selenium input atoms in the crystal lattice of silicon.

**Key words:** binary complex, nickel, selenium, forward voltage, short circuit current.

## БИНАРНЫЙ НИКЕЛЬ И СЕЛЕН, ЛЕГИРОВАННЫЙ С КРЕМНИЕМ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КОМПЛЕКСОВ

Аннотация

Представлены результаты исследования кремния, легированного атомами Ni и Se. Введение никеля напыляли на поверхность кремния с последующим методом «низкотемпературной» диффузии при  $T=1150^{\circ}\text{C}$  в течение 0,5 часов. Дополнительную термическую обработку образцов, легированных Ni и Se, проводили аналогично ( $T = 820^{\circ}\text{C}$ , в течение 0,5 часа). Состав образцов изучали с помощью СЭМ (сканирующего электронного микроскопа). Изменение свойств Si<Ni,Se> объяснили образованием бинарных комплексов входных атомов никеля и селена в кристаллической решетке кремния.

**Ключевые слова:** бинарный комплекс, никель, селен, прямое напряжение, ток короткого замыкания.

## KREMNIYGA LEGIRLANGAN NIKEL VA SELEN BINAR KOMPLEKSLARNING O'ZARO TA'SIRLASHUVI

Анотация

Ni va Se atomlari bilan legirlangan kremniyni taqqiqot natijalari keltirilgan. Nikelning kiritilishi kremniy yuzasiga changlatib olinadi va undan so'ng  $T=1150^{\circ}\text{C}$  da 0,5 soat davomida "past haroratli" diffuziya usulida amalga oshirildi. Ni va Se legirlangan namunalarga qo'shimcha termik ishlov berish xuddi shunday amalga oshirildi ( $T = 820^{\circ}\text{C}$ , 0,5 soat davomida). Namunalarning tarkibi SEM (Skannerlovchi elektron mikroskop) yordamida o'rganildi. Si<Ni, Se> xossalarning o'zgarishi kremniyning kristall panjarasida Nikel va selen kirishma atomlarining binar komplekslarning hosil bo'lishi bilan izohlandi.

**Kalit so'zlar:** binar kompleks, nikel, selen, salt yurish kuchlanishi, qisqa tutashuv toki.

Hozirgi kunda kremniy zamonaviy elektronika uchun asosiy material bo'lib kelmoqda. Kremniy panjarasiga turli elementlarning kirishma atomlarini o'z ichiga olgan elektroneytral molekula yoki kompleksli obyektlarning kiritilishi yangi effektlarni aniqlashga olib keladi [1-3]. Ushbu maqolada Ni va Se atomlari bilan qo'shilgan kremniyga asoslangan quyosh elementlari tadqiqotlari natijalari keltirilgan. Bizga ma'lumki, kremniydagi termik va radiatsion defektlar asosan optik aktiv kislorod konsentratsiyasi orqali aniqlanadi. Chunki bunday kislorod konsentratsiyasini boshqarish katta texnologik imkoniyat yaratadi. nikel va kislorod segregatsiya jarayonini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Bunga sabab kremniyda nikel atomlari yetarli darajada yuqori eruvchanligi  $N \sim 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  ga teng va ular elektroneytral holatda bo'ladi [4-6].

1-jadval.

Dastlabki namunalarning o'rtacha qiymat elektrik va optik parametrlari.

Dastlabki material	O'tkazuvchanlik tipi	$\rho$	$\mu$	p, n
KDB-0,5	p	0,5	329	$4 \cdot 10^{16}$
KEF-100	n	97	1340	$4,8 \cdot 10^{13}$

Dastlabki material sifatida Choxralskiy metodi bilan olingan, solishtirma qarshiligi p-tip  $\rho=0.5 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ , va n-tip  $\rho=100 \text{ Om}\cdot\text{sm}$  bo'lgan monokristall kremniy foydalanildi. Bu namunalarda optik aktiv kislorod konsentratsiyasi  $N_{O_2}=(5\div 6) \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$  ni tashkil etadi. Namunaning o'lchami  $1 \times 4 \times 0,8 \text{ mm}^3$ .

Barcha namunalar bir xil sharoitda mexanik va kimyoviy ishlov berildi. Namunalarning elektrik parametrlari Xoll effekti yordamida aniqlandi. Namunalarning kontakt qismi kimyoviy gipofosfit rastvorli nikel bilan qo'plandi.

Nikel atomlarining diffuziyasi  $T=1150^{\circ}\text{C}$  da  $t=30$  minut davomida kvarts ampulalarda "past haroratli bosqichma-bosqich" diffuziya usulida amalga oshirildi. Keyin Se atomlarini diffuziyasi  $T=1200^{\circ}\text{C}$  da  $t=30$  daqiqa davomida amalga oshirildi. Natijada p-n ko'rinishdagi tuzilmalar, ya'ni fotoelementlar olindi. "NiSe" molekulasidagi nisbatan yuqori bog'lanish energiyasi va nikelning yuqori diffuziya koeffitsiyentini hisobga olgan holda, qo'shimcha termik ishlov berish harorati  $T = 820^{\circ}\text{C}$  da tanlandi. Qo'shimcha termik ishlov berishdan so'ng, fotoelementning (FE) salt yurish kuchlanishi ( $U_{\text{syu}}$ ) va qisqa tutashuv toki zichligi ( $J_{\text{qt}}$ ) o'lchandi. Si<B, Mn, Se> fotoelementlarida  $J_{\text{qt}}$  qiymati Si<B, Se> FE ga nisbatan 22% ga oshdi,  $U_{\text{syu}}$  qiymati esa 427 mV dan 480 mV ga, ya'ni 12 % ga ortdi (2-jadval). Termik ishlov berishdan so'ng FE larni parametrlarining Si<B,Se> oshishi selen atomlarini kremniydagi rekombinatsion kirishmalarni getterlash xususiyati bilan tushuntirildi [7-9]. Diffuziya jarayonidan so'ng selen atomlarining bunday xususiyatlari deyarli namoyon bo'lmaydi, chunki diffuziyadan keyin tez sovutish sababli elektrofaol bo'lishiga ulgurmaydi. Uzoq muddatli qo'shimcha termik ishlov berish komplekslar hosil bo'lish jarayonini faollashtiradi va bu nazoratsiz kirishmalar va nuqtali nuqsonlarning getterlanishiga olib keldi.


2-jadval.

Quyosh elementlarining  $T=820^{\circ}\text{C}$  haroratda qo'shimcha termik ishlov berishdan keyingi elektrofizik parametrlari

Namunalar	$J_{\text{qt}}, \text{mA}/\text{cm}^2$	$U_{\text{syu}}, \text{mV}$	$P_{\text{pik}}, \text{mW}/\text{cm}^2$
Si<B, Se>	18	427	7,7
Si<B, Ni, Se>	22	480	10,6
Si<B, Ni, Se> FE parametrlarini	+22%	+12 %	+37,4%

Si<B, Se> FE ga nisbatan o'zgarishi

Demak, Si<sub>2</sub>NiSe turdagi komplekslarni hosil bo'lishining texnologik optimal sharoitlari aniqlandi - selen va nikel kirishma atomlarining diffuziya harorati T=1160 °C, qo'shimcha termik ishlov berish (kompleks hosil bo'lish) harorati T=820 °C ni tashkil etdi. Diffuziya va qo'shimcha termik ishlov berishdan so'ng FE parametrlarini Usyu - 12% ga, J<sub>qt</sub> - 22% ga, P<sub>pik</sub> - 37,4% ga oshgani aniqlandi [10-12].



1-rasm. Diffuziyadan keyin kremniya hosil qilingan nikel va selen atomlari komplekslarining tarkibi (SEM).

O'tkazilgan tajribalardan keyin biz elektron mikroskop yordamida namunaning tarkibini aniqladik(1-rasm). Natijalar shuni ko'rsatdiki kremniya nikel va selen atomlari miqdori bir biriga teng ekan. Bu shundan dalolat beradiki kremniya nikel va selen atomlari birikib binar komplekslar hosil qilgan. Kremniyning salt yurish kuchlanishi U<sub>syu</sub> - 12% ga, qisqa tutashuv toki J<sub>qt</sub> - 22% ga, quvvati P<sub>pik</sub> - 37,4% ga oshganligi ham olingan natijalarni tasdiqlaydi.

3-jadval

Dastlabki namunalarning o'rtacha qiymat elektrik va optik parametrlari

Dastlabki namuna	O'tkazuvchanlik tipi	solishtirma qarshilik ρ	harakatchanlik μ,	Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi p, n	Optik aktiv kislorod konsentratsiyasi, N <sub>o</sub> <sup>opt</sup>
KDB-3	p	3,2	252	7,7·10 <sup>15</sup>	5,7·10 <sup>17</sup>
KEF-100	n	97	1340	4,8·10 <sup>13</sup>	5,7·10 <sup>17</sup>

Ni krishma atomlari va kislorodning o'zaro ta'siri.

Nikel diffuziyasidan so'ng kremniy namunalarida tugunlararo optik faol kislorod konsentratsiyasi 1106 sm<sup>-1</sup> (9 μm) mintaqasida Furey spektrometri bilan o'lchandi. (3-rasm).

Misol tariqasida, Ni diffuziyadan keyin optik faol kislorod konsentratsiyasi mavjud ma'lumotlar asosida hisoblab chiqildi [13-14]:

1) Nikel qo'shilgan namunalar uchun - KEF-100 asosida olingan Si<Ni>

$$N_o^{OIT} = 3.3 \cdot 10^{17} \cdot \frac{1}{d} \cdot \ln \frac{I}{I_0} = 1.8 \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-3} \quad (2)$$

2) Nazorat namunasi uchun - Si <nazorat namuna>

$$N_o^{OIT} = 3.3 \cdot 10^{17} \cdot \frac{1}{d} \cdot \ln \frac{I}{I_0} = 4.9 \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-3} \quad (3)$$


Misol tariqasida, Ni diffuziyadan keyin optik faol kislorod konsentratsiyasi mavjud ma'lumotlar asosida hisoblab chiqildi:

1) Nikel qo'shilgan namunalar uchun - KEF-100 asosida olingan Si<Ni>

$$N_o^{OIT} = 3.3 \cdot 10^{17} \cdot \frac{1}{d} \cdot \ln \frac{I}{I_0} = 1.8 \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-3} \quad (2)$$

2) Nazorat namunasi uchun - Si <nazorat namuna>


$$N_o^{OIT} = 3.3 \cdot 10^{17} \cdot \frac{1}{d} \cdot \ln \frac{I}{I_0} = 4.9 \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-3} \quad (3)$$



3-rasm. - Namuna o'tkazuvchanligining tushayotgan nurlanish to'liqin uzunligiga bog'liqligi (1 - nikel legirlangan namuna, 2 - nazorat namunasi).

3) Si <Ni> namunalarida kislorod konsentratsiyasining nazorat namunalariga nisbatan nisbiy o'zgarishi

$$(N_o^{opt}(\text{nazorat namuna}) - N_o^{opt}(\text{Ni})) / N_o^{opt}(\text{nazorat namuna}) = (4.9 \cdot 10^{17} - 1.8 \cdot 10^{17}) / 4.9 \cdot 10^{17} = 0.6$$



2-rasm. Kremniy panjarasida nikel va selen binar komplekslarining joylashish imkoniyatlari. Binar komplekslarning kremniy panjarasida tugunlararo joylashishi.

Shunday qilib, kremniy nikel bilan legirlangan namunaning optik faol kislorod konsentratsiyasi 60% ga kamayishiga olib keladi. Bu natija kremniy tugunlari orasida nikel va kislorod brikmalarining hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Qolgan nikel atomlari esa selen atomlari bilan birikadi. Kremniy materialida kremniy panjarasida Si<sub>2</sub>NiSe tipidagi tetraedral binar komplekslarning ancha yuqori N ~ (3÷4)·10<sup>16</sup> sm<sup>-3</sup> konsentratsiyasi mavjud bo'lib, bu katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi [15-17]. Bunday binar komplekslarning konsentratsiyasini oshirish

yo'llarini va bunday materiallarning xususiyatlarini o'rganish kelajakda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va fotoelektrik qurilmalarni ishlab chiqish uchun kremniy asosidagi materiallarning yangi sinfini yaratishga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. *M.K. Bakhadirxanov, Kh.M. Iliev, M.O. Tursunov, S.B. Isamov, S.V. Koveshnikov, M.Kh. Majitov.* Electrical Properties of Silicon Doped with Manganese via High-Temperature Diffusion // *Inorganic Materials*. 2021. Vol. 57, No. 7, pp. 655-662. <https://doi.org/10.1134/S0020168521070013>
2. *Bakhadyrkhanov, M.K., Isamov, S.B., Zikrillaev, N.F., Tursunov M.O.* Anomalous Photoelectric Phenomena in Silicon with Nanoclusters of Manganese Atoms // *Semiconductors*, 2021. Vol. 55, No. 6, pp. 542-545. <https://doi.org/10.1134/S1063782621060038>
3. *Ismailov K.A., Iliev X.M., Tursunov M.O., Ismaylov B.K.* Formation of complexes consisting of impurity Mn atoms and group VI elements in the crystal lattice of silicon. // *Semiconductor Physics, Quantum Electronics & Optoelectronics*. 2021, Vol. 24, No. 3, pp. 255-260. <https://doi.org/10.15407/spqeo24.03.255>
4. *Tursunov M.O., Iliev Kh.M., Ismaylov B.K.* High-temperature analysis of silicon properties with manganese-oxygen binary complexes // *Physical Sciences and Technology. Scopus Q4*. 2024, Vol. 11 (No. 1-2), Pp. 4-12. <https://doi.org/10.26577/phst2024v11i1a1>
5. *Iliev Kh.M., Tursunov M.O., Koveshnikov S.V., Khudaynazarov Z.B.* Research of properties of silicon with binary nanoclusters with participation of Mn and Se atoms // *Semiconductor Physics and Microelectronics*. 2020, Vol. 2, Issue 2, pp. 59-62.
6. *Илиев Х.М., Турсунов М.О., Исамов С.Б., Ковешников С.В.* Влияние легирования никелем и марганцем на концентрацию кислорода в кремнии // *Фан ва жамият – Nukus*, 2022. – S. 2. – № 4. – С. 7-10.
7. *Бахадирханов М.К., Илиев Х.М., Исамов С.Б., Тачилин С.А., Зикrillaев Н.Ф., Ибодуллаев Ш.Н., Турсунов М.О.* Особенности фотоэлектрических свойств кремния с нанокластерами атомов марганца в области  $\lambda=1,5...2,5$  мкм // *Приборы*. Россия, 2019, Т.231, Вып 10, С. 52-55.
8. *Iliev Kh.M., Tursunov M.O., Ismaylov K.A.* Interaction of manganese with O, S, Se and Te impurities // *Science and Education in Karakalpakstan – Nukus*, 2021. – Vol. 18. – № 3. – Pp. 9-13.
9. *Tursunov M. Iliev Kh. Abdiev U.B. Bobomuatov S.* Research of properties of silicon with binary complexes involving Mn and S atoms // *Norwegian Journal of development of the International Science*. 2023, June, №118. – Pp. 55-59.
10. *Tursunov M.* Formation of complexes of impurity atoms nickel and manganese in silicon // *German International Journal of Modern Science*. 2024, May, №. 80, – Pp. 55-58.
11. *Бахадирханов М.К., Илиев Х.М., Турсунов М.О. Каршиев Ш.Ж* Interaction of nickel atoms with group VI impurities in the silicon lattice // *Polish journal of science*. 2022. - № 52, - Pp. 52-54.
12. *Илиев Х.М., Турсунов М.О., Тачилин С.А.* Влияние легирования марганцем на концентрацию кислорода в кремнии. // VII Международная конференция «Лазерные, плазменные исследования и технологии» ЛАПЛАЗ-2021. В.2. Ч.1., 23 – 26 марта 2021 г. – Москва. – С. 215-216.
13. *Илиев Х.М., Турсунов М.О., Ковешников С.В.* Новые функциональные материалы для фотоэнергетики на основе кремния // VI Всероссийская научно-практическая конференция «Энергетика и энергосбережение: теория и практика» 8-10 декабря 2021 г. – Кемерово. – С.221-225.
14. *Tursunov M. Iliev Kh. Abdiev U.B. Bobomuatov S.* Research of properties of silicon with binary complexes involving Mn and S atoms // *Norwegian Journal of development of the International Science*. 2023, June, Vol. 2, - №118. – Pp. 55-59.
15. *Турсунов М.О, Илиев Х.М., Хужаназаров У.М., Шопулатов Ш.Ш.* Взаимодействия марганца и кислорода в решетке кремния при высоких температурах // Международной научной конференция "Тенденции развития физики конденсированных сред" 30-31 октября 2023 г. – Фергана, С. 52-54.
16. *Х.М.Илиев, М.О.Турсунов, С.В.Ковешников, А.С.Аллаёров.* Энергии связи комплексов марганца с элементами VI группы в решетке кремния // VII Международная научно-практическая конференция «Энергетика и Энергосбережение: теория и практика» г. Кемерово, 7-9 декабря 2022. С. 227, 1-5.
17. *Турсунов М.О., Илиев Х.М., У.М.Хужаназаров, Ш.Ш.Шопулатов.* Фотоэлектрических свойств p-n перехода, сформированного теллуром совместно с марганцем в решетке кремния // VIII Международная научно-практическая конференция «Энергетика и энергосбережение: теория и практика» 6-8 декабря 2023 г. – Кемерово. – С. 2127-1-4.



UDK: 523.9:621.373.8:66011

Fayoziddin KAMOLIDDINOV,

O'z RFA U.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: [f\\_kamoliddinov@yahoo.com](mailto:f_kamoliddinov@yahoo.com)

Anvarjon SHERNIYOZOV,

O'z RFA U.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti katta ilmiy xodimi, PhD

Shermakhmat PAYZIYEV,

O'z RFA U.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti professori, f.-m.f.d

F.-m.f.d., professor v.b., A.Kasimov taqrizi asosida

### FAOL MUHIT YON SIRTIGA DAVRIY TRAPETSIIYA SHAKLINI BERISHNING QUYOSH LAZERLARI CHIQISH PARAMETRLARIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Bu ishda biz quyosh bilan damlanadigan va sirti strukturalangan kristallardan tashkil topgan lazerlarni modellashtirish orqali o'rgandik. Bu ishda ishlatilgan simulyatsion modellar Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish usulidan foydalanib tuzildi. Simulyatsion modelning ko'rsatishicha, sirtini strukturalash damlash samaradorligini 7% ga oshishiga olib kelar ekan. Bu o'sishning asosiy sabablaridan biri sirtini strukturalash natijasida lazer sistemasidagi nurlarning trayektoriyalari keskin o'zgarishi bo'lishi mumkin. Damlash quvvati 800 W da ko'rilganda, samaradorligining yaxshilanishi o'z navbatida lazer chiqish quvvatining absolut qiymati 20% ga yaxshilanishiga olib keldi. Tekis va strukturalangan sirtli kristalga ega lazerlarning chiqish quvvati mos ravishda 8.5 W va 10.5 W bo'lishi ko'rsatildi. Olingan ilmiy natijalar turli strukturalangan sirtli kristallardan foydalanib quyosh lazerlarini takomillashtirish yoki optimallashtirish mumkinligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** Quyosh lazerlari, Monte-Karlo metodi, Frenel linzasi, Strukturalangan sirt.

### ВЛИЯНИЕ ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ТРАПЕЦИЕВИДНОЙ ФОРМЫ ПОВЕРХНОСТИ АКТИВНОЙ СРЕДЫ НА ВЫХОДНЫЕ ПАРАМЕТРЫ СОЛНЕЧНОГО ЛАЗЕРА

Аннотация

В этой работе были исследованы солнечные лазеры с поверхностно-структурированными лазерными средами через разработку симуляционной модели на основе метода трассировки фотонов Монте-Карло. Результаты показывают, что структурирование поверхности приводит к 7%-ному повышению эффективности накачки, вероятно, из-за значительных изменений в траекториях фотонов в лазерной системе. Эта повышенная эффективность привела к 20%-ному повышению выходной мощности лазера, достигнув 10,5 Вт при уровне накачки 800 Вт по сравнению с 8,5 Вт для лазеров с полированными поверхностями. Эти результаты указывают на потенциал оптимизации солнечных лазеров с использованием кристаллов со структурированными поверхностями.

**Ключевые слова:** Солнечные лазеры, метод Монте-Карло, линза Френеля, структурированная поверхность.

### IMPACT OF PERIODIC TRAPEZOIDAL SHAPING OF THE ACTIVE MEDIUM'S SURFACE ON SOLAR LASER OUTPUT PARAMETERS

Annotation

In this study, we investigated solar lasers with grooved lasing media by developing simulation models based on the Monte Carlo photon tracing method. The results demonstrate that surface structuring leads to a 7% increase in pumping efficiency, likely due to significant changes in photon trajectories within the laser system. This enhanced efficiency resulted in a 20% improvement in the laser's output power, reaching 10.5 W at an 800 W pumping level, compared to 8.5 W for lasers with polished surfaces. These findings indicate the potential for optimizing solar lasers using crystals with structured surfaces.

**Key words:** Solar lasers, Monte Carlo method, Fresnel lens, Structured surface.

**Kirish.** Oxirgi yillarda quyosh energiyasini to'g'ridan-to'g'ri lazer nuriga aylantirib foydalanishga qiziqish oshmoqda. Quyosh nurlari bilan ishlaydigan lazerlar bo'yicha dastlabki tadqiqotlar 1960-yillarning boshlariga to'g'ri keladi [1,2]. Quyosh lazer texnologiyasini odatiy energiya manbalari yetib bormagan joylarda, kosmosda va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini olish jarayoni zanjirida ishlatish mumkin [3-5].

Shu kungacha quyosh energiyasini lazer nuriga aylantirishda erishilgan eng katta umumiy samaradorlik 4.64% ni tashkil etadi [6]. Bu ko'rsatkich quyosh lazerlarining amaliyotda qo'llanish uchun to'sqinlik qilmoqda va quyosh lazerlari samaradorligini oshirish ustidagi tadqiqotlar bir nechta yo'nalishda davom etmoqda. Jumladan, quyosh energiyasini faol muhitga samarali uzatish mexanizmlarini topish [7], ko'p sterjenli sxemalardan foydalanish [8, 9], ichki va tashqi sensiblizatorlardan foydalanish [10, 11]. Keyingi yillarda faol muhit sirtiga shakl berish orqali quyosh lazerning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ham paydo bo'ldi [12]. Bu ishda strukturalangan sirtli faol muhitga ega quyosh lazerlari o'rganiladi.


Dastlabki eksperimental ishda [12] quyosh lazerlarida strukturalangan sirtli Nd:YAG faol muhitlardan foydalanib, lazer samaradorligi va optik dastanang fizik sifatini yaxshilanish mumkinligi ko'rsatilgan. Keyinchalik [13], strukturalangan sirtli Nd:YAG faol muhitini ishlatish orqali ostona quvvatini pasaytirish mumkinligi va yuqori nishab (qiyalik) samaradorlik 4.98% olish mumkinligi eksperimental o'rganilgan. 2018-yilga kelib geliostat-parabolik oyna tizimida strukturalangan sirtli Nd:YAG faol muhiti bilan experimentlar o'tkazilgan [14]. Bunda chiqish quvvat 20.1W, nishab samaradorlik 5.04% ga erishilgan. Bu ko'rsatkich oldingi eng yaxshi natijani 1,31 baravar yaxshiladi. Yaqindagina [15], 2023-yil strukturalangan sirtli Ce:Nd:YAG/YAG faol muhiti bilan Frenel linzasi yordamida experimentlar o'tkazildi. Bunda lazer chiqish quvvati 26.93 W va nishab samaradorlik 6.3% bo'lgan.

Oxirgi ishda olingan nishab samaradorlik yakka kristalli quyosh lazerlari o'rtasida bugungi kungacha eng yaxshisi hisoblanadi va bu strukturalangan sirtli kristallar orqali quyosh lazerlarini takomillashtirish mumkinligiga ishora qiladi. Shu sababli, bu ishda quyosh lazeridagi faol muhit sirtini trapetsiya ko'rinishidagi shakllar orqali strukturalash (naqsh berish), lazerning chiqish parametrlariga qanday ta'sir qilishini modellashtirish orqali o'rganish maqsad qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Eksperimental natijalarni tushunish va jarayonlarni to'liq tahlil qilib mexanizmlarini aniqlash uchun biz strukturalangan faol muhitli quyosh lazerlarini modellashtirishda ko'p qirralilikni ta'minlovchi Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish (MKFYK) metodi orqali modellarni ishlab chiqdik. Bu metod optika sohasida ko'p ishlatiladigan nur yo'lini kuzatish usulining takomillashtirilgan varianti hisoblanadi [16]. U o'rganilayotgan obyektning barcha optik va fizik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bir nechta jarayonlarda rivojlanishi mumkin bo'lgan optik jarayonlarga duch kelganda, Monte Karlo usuli aniq simulyatsiyani ta'minlash uchun jarayonni boshqaradi. Biz oldingi ilmiy

tadqiqotlarimizda MKFYK yordamida olingan natijalar haqiqiy eksperimentda kuzatilgan natijalar bilan deyarli ustam-ust tushushini va uning ishonchli ekanini ko'rsatganmiz [17], qisqalik uchun bu yerda batafsil to'xtalib o'tirmaymiz.

**Quyosh lazeri modeli tavsifi.** Quyosh lazeri tizimda dastlabki konsentrator sifatida Frenel linzalari ishlatilgan. U tejamkor, yengil va ixcham. Frenel linza yuzasining diametri  $1\text{ m}$ , yuzasi  $0.785\text{ m}^2$ . Ikkilamchi konsentrator sifatida kesik konus shaklidagi kamera (1-Rasm) tanlab olingan. Konus kamerasi Frenel linzaning fokusiga joylashtiriladi. U quyosh nurining lazer kristaliga yo'naltiradi va samarali yutilishga yordam beradi. Konus kamerasining uzunligi  $80\text{ mm}$ , kameraga kirish tuynukining diametri  $36\text{ mm}$ , kameraning chiqish tuynuki diametri  $12\text{ mm}$ , ikkilamchi konusli konsentratorning ichida tashqi diametri  $12\text{ mm}$ , ichki diametri  $10\text{ mm}$ , oldi egrilik radiusi  $6\text{ mm}$  va uzunligi  $80\text{ mm}$  bo'lgan kvarts trubka joylashtirilgan. Kvarts trubkada distillangan suv aylanadi va shu orqali trubka ichida joylashgan lazer kristali doimiy ravishda sovutilib turilishi ko'zda tutilgan. Lazer kristali sifatida Ce:Nd:YAG sterjeni olingan va uning o'lchamlari  $6\text{ mm}$  diametr va uzunligi  $95\text{ mm}$ .




1-Rasm. Quyosh lazeri kamerasing sxematik ko'rinishi.

*Sirtini trapetsiya shaklidan foydalanib strukturalash.* Endi quyosh lazerining modelini yasashda ishlatilgan faol muhit kristali sirtini strukturalashga keladigan bo'lsak, dastlab sirti tekis silindr shaklidagi kristal olingan va uning sirtiga radiusga nisbatan o'lchami kichkina bo'lgan trapetsiya shaklidan foydalanib naqsh berilgan, ya'ni davriy trapetsiyalash orqali strukturalangan (2-rasm). Lazer kristalining diametri  $6\text{ mm}$ , uni rasmda ko'rsatilgan kabi  $0.1\text{ mm}$  chuqurlikda trapetsiya shaklida davriy o'yib chiqilgan. Trapetsiya shaklining takrorlanish davri  $0.6\text{ mm}$ . Kristall deformatsiyaga uchrashmasligi uchun kristallning ikki chetidan  $5\text{ mm}$  sohasi o'yilmagan silindrik ko'rinishda olindi. Trapetsiya shaklining o'lchamlari 2c-rasmda keltirilgan.



2-Rasm. (a) Sirti tekis silindrik kristal, (b) strukturalangan sirtli kristal, (c) trapetsiya tavsifi.


**Modelning ishlash jarayoni.** Yuqorida ta'riflangan elementlardan tuzilgan sistemadagi damlash jarayonini o'rganish uchun MKFYK usulidan foydalanib modellashirildi. Bunda, quyoshning spektral xarakteristikasi va sistema elementlarining fizik xususiyatlari hisobga olindi. 2-rasmdagi keltirilgan ikkita sterjenning sirt farqi mavjudligi sababli, sistemaga kirayotgan fotonning sistema bilan o'zaro ta'siri har xil manzarada kechishini kutish mumkin. Shuni ko'rish uchun, 3 ta foton yo'nalishi tasodifiy tanlab olindi va sistemadagi yurish trayektoriyasining modeli qilindi (3-rasm). Yashil, qizil va ko'k ranglar bilan chizilgan foton trayektoriyasidan ko'rish mumkinki, sirtini strukturalash fotonning yurish yo'lini keskin o'zgartiradi va shu orqali fotonning faol muhitda yutilishiga ya'ni damlanishiga ta'sir o'tkazadi.



3-Rasm. (a) Tekis sirtga ega sterjenli va (b) Strukturalangan sirtga ega sterjenli lazer modeli.

Sirt o'zgarishining lazer chiqish quvvatiga ta'sirini baholash uchun rezonator parametrlaridan tashqari damlash jarayonidan dastlab asosiy kattalik - yutilish samaradorligi (faol muhitda yutilgan fotonlarning sistemaga kirgan jami fotonlar soniga nisbati) kerak, keyin yutilishning sterjen bo'yab taqsimoti kerak bo'ladi. Yutilishning taqsimotini olish uchun fotonlarning faol muhitda yutilgan joyi qayd qilinadi va jamlash kerak bo'ladi.

Biz sistemaga  $2 \times 10^7$  ta fotonni kiritdik va ularning faol muhitda yutilgan joylari qayd qilish orqali yutilish taqsimoti olindi. Tekis sirtli sterjen uchun faol muhitda yutilish samaradorligi  $15.81\%$ , strukturalangan yuza uchun esa  $16.93\%$  ni tashkil qildi. Ko'rinib turibdiki, strukturalash faol muhitda yutilish samaradorligini  $7\%$  ga oshirishi kuzatildi. Tabiiyki, bu ko'rsatgich trapetsiyaning o'lchamlari va davri bilan bog'liq. Yutilish taqsimoti 4-rasmda chizildi.



4-Rasm. (chapda) Tekis sirtga ega sterjenli va (o'ngda) Strukturalangan sirtga ega sterjenli yutilish taqsimoti.

Bu ikkala damlash parametridan tashqari lazer chiqish quvvatini baholash uchun bir nechta rezonator parametrlari kerak bo'ladi. Damlash taqsimoti 4-rasm ko'rsatadiki, damlash kristal bo'yab juda notekis taqsimlangan va shu sababli bizga fazoviy bog'liq bo'lgan elektronlarning sathlararo o'tish tezligi tenglamasini kerak bo'ladi [7]

$$\phi = \tau_c \iiint_{\text{volume}} \frac{R_p(1+f) - fN_t / \tau}{(1+f) + V / (\phi c \sigma_e \tau |u|^2)} dV. \quad (1)$$


$$P_{out} = k\phi \quad (2)$$

Bu yerda  $k = h\nu\gamma_2 c / 2L_e$  proporsionallik koeffitsienti ( $\gamma_2$  chiqish ko'zgusining o'tkazish koeffitsienti,  $L_e$  - rezonator uzunligi,  $h$ -Plank doimiysi,  $V$  -lazer chastotasi,  $c$ -yorug'lik tezligi), rezonator ko'zgisiga va uzunligiga bog'liq. Lazer chiqish quvvati  $P_{out}$



damlash tezligi  $R_p(r)$  ning funksiyasi, rezonator modasi  $u(r)$  va temperaturaga bog'liq nurlanish ko'ndalang kesim nisbati  $f = \sigma_a(T(R_p, u)) / \sigma_e(T(R_p, u))$ , bu yerda  $T$  faol muhit temperaturasi.

Modeldan olingan samaradorlik va taqsimotga qo'shimcha rezonator parametrlarini nazarda tutgan holda, ikkala hol uchun lazer chiqish quvvatini elektronlarning sathlararo o'tish tezligi (1) va (2) tenglamalarini ishlatib hisoblangan natijalar 5-rasmda keltirilgan.



5-Rasm. Tekis sirtga ega sterjenli (ko'k rang) va strukturalangan sirtga ega sterjenli (qizil rang) lazer chiqish quvvatining damlash quvvatiga bog'liqligi.

5-rasmdan ko'rinadiki, 800 W damlash quvvatida, strukturalangan sirtga ega sterjenli lazer tekis sirtli holga qaraganda deyarli 20% yaxshilanishga olib keladi.

**Xulosa.** Bu ishda biz quyosh bilan damalanadagan va sirti strukturalangan kristallardan tashkil topgan lazerlarni o'rgandik. Strukturalangan sirtli kristallar yordamida qilingan experimental ishlar lazer chiqish xarakteristikasi yaxshilanishi mumkinligiga ishora qilgandik. Bu ishda MKFYK bilan tuzilgan modeldan foydalanib yaxshilanishning sabablari qidirdik. Modelning ko'rsatishicha sirtli strukturalash damlash samaradorligini 7% ga oshishga olib kelar ekan. Bu o'sishning zamirida, lazer sistemasidagi nurlarning trayektoriyalari keskin o'zgarishi turgan bo'lishi mumkin. Damlash samaradorligining yaxshilanishi natijasida, lazer chiqish quvvatining absolyut qiymati 20% ga yaxshilandi ya'ni 8.5 W dan 10.5 W gacha oshirdi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turli strukturalangan sirtli kristallardan foydalanib quyosh lazerlarini takomillashtirish yoki optimallashtirish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Z. J. Kiss, H.R. Lewis, R. C. Duncan, Sun pumped continuous optical maser, Appl. Phys. Lett., 2 (1963) 93, <https://doi.org/10.1063/1.1753794>
2. C. G. Young, A Sun-Pumped c. w. One-Watt Laser, Opt., 5 (1966) 993, <https://doi.org/10.1364/AO.5.000993>
3. Z. Guan et al., "Demonstration of a free-space optical communication system using a solar pumped laser as signal transmitter," Laser Phys. Lett. 14(5), 055804 (2017)
4. T. Yabe et al., "100 W-class solar pumped laser for sustainable magnesium-hydrogen energy cycle," J. Appl. Phys. 104, 083104 (2008).
5. M. Oliveira et al., "A path to renewable Mg reduction from MgO by a continuous-wave Cr, Nd:YAG ceramic solar laser," Sol. Energy Mater. Sol. Cells 155, 430–435 (2016).
6. Liang, D., Vistas, C. R., Garcia, D., Tibúrcio, B. D., Catela, M., Costa, H., ... & Almeida, J. (2022). Most efficient simultaneous solar laser emissions from three Ce: Nd: YAG rods within a single pump cavity. Solar Energy Materials and Solar Cells, 246, 111921.
7. Sherniyozov Anvarjon Akhmedjonovich and Shermakhamat Dalievich Payziyev. "Side-pumped efficient Ce: Nd: YAG solar laser in a multi-pass scheme." Journal of Photonics for Energy 12, no. 3 (2022): 034501-034501.
8. Sherniyozov Anvarjon, Shermakhamat Payziyev and Sherzod Begimqulov. "Enhancing solar laser performance through multirod configurations." Journal of Photonics for Energy 14, no. 2 (2024): 024501-024501.
9. Payziyev Sh, Kh Makhmudov, S. Bakhramov, A. Sherniyozov and Kh Zikrillayev. "Solar-pumped multi-rod laser on a separate heliostat of big solar furnace." Applied Solar Energy 57, no. 6 (2021): 541-551.
10. Payziyev Sh, A. Sherniyozov, S. Bakhramov, Kh Zikrillayev, G. Khalikov, Kh Makhmudov, M. Ismailov, and D. Payziyeva. "Luminescence sensitization properties of Ce: Nd: YAG materials for solar pumped lasers." Optics Communications 499 (2021): 127283.
11. Bakhramov S. A., A. A. Sherniyozov, Sh D. Payziyev, Kh F. Zikrillayev, G. A. Khalikov, Kh M. Makhmudov, M. Z. Ismailov, D. E. Payziyeva, and T. G. Khotchenkova. "Feasibility of luminophores in solar-pumped laser heads." Journal of Applied Spectroscopy 88, no. 2 (2021): 370-372.
12. Xu Peng, Suhui Yang, Changming Zhao, Zhu Guan, Huaxin Wang, Yichen Zhang, Haiyang Zhang, and Tao He. "High-efficiency solar-pumped laser with a grooved Nd: YAG rod." Applied optics 53, no. 18 (2014): 3941-3944. <http://dx.doi.org/10.1364/AO.53.003941>.
13. Guan Z., Zhao C., Yang S., Wang Y., Ke J., Gao F., & Zhang H. (2016, November). Low threshold and high efficiency solar-pumped laser with Fresnel lens and a grooved Nd: YAG rod. In High-Power Lasers and Applications VIII (Vol. 10016, pp. 16-24). SPIE.
14. Guan Z., Zhao C., Zhang H., Li J., He D., Almeida J., ... & Liang D. (2018). 5.04% system slope efficiency solar-pumped Nd: YAG laser by a heliostat-parabolic mirror system. Journal of Photonics for Energy, 8(2), 027501-027501.
15. Cai Z., Zhao C., Zhao Z., Zhang J., Zhang Z., & Zhang H. (2023). Efficient 38.8 W/m<sup>2</sup> solar pumped laser with a Ce: Nd: YAG crystal and a Fresnel lens. Optics Express, 31(2), 1340-1353.
16. Sherniyozov A. A. and Payziyev Sh. D. "Simulating optical processes: Monte Carlo photon tracing method." «Uzbek journal of Physics» 24, no. 3 (2022): 157-162.
17. Sherniyozov A. A. and Payziyev Sh. D. "Side-pumped efficient Ce: Nd: YAG solar laser in a multi-pass scheme." Journal of Photonics for Energy 12, no. 3 (2022): 034501-034501.



UDK:004.032.26.

*Isomiddin NASRIDDINOV,*  
*Angren universiteti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi*  
*Raximqul QURBONOV,*  
*Belorusiya-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi*

*O'z FA U. Arifov nomidagi IPLT instituti professori, fizika-matematika fanlari doktori, Z.Isaxanov taqrizi asosida*

#### SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI TOG'-KON ISHLARI MASALALARINI YECHISHDA QO'LLASH

Аннотация

Mazkur maqolada neyron tarmoqlarini tog'-kon ishlarida qo'llanish masalasi ko'rib chiqilgan. Odatda tog'-kon ishlari, noaniqlik sharoitida olib borilishi sababli, bu jarayoni to'g'ri va aniq baholashda ehtimoliy faktorlar katta rol o'ynaydi. Mualliflar mavjud matematik modeldan foydalanib tog'-kon sharoitida rejalashtirish masalasini neyron tarmoqlari yordamida ko'rib chiqish usulini ishlab chiqqanlar.

**Kalit so'zlar:** neyron, tarmoq, sun'iy intellekt, rejalashtirish, tog'-kon, boshqaruv parametrlari, samaradorlik, o'rtasalmoqli, usul, muqobil, algoritim, tezkorlik, dasturlash tili.

#### APPLICATION OF AN ARTIFICIAL NEURAL NETWORK TO SOLVE MINING PROBLEMS

Annotation

This article discusses the use of neural networks of one of the areas of artificial intelligence in solving open-pit mining problems. The authors examined the use of this method in solving operational and calendar planning of open-pit mining. The use of neural networks in mining, due to the uncertainty in natural and technological systems, is a rather difficult task. The authors, based on the developed mathematical model, made an attempt to formalize knowledge.

**Key words:** Neuron, network, intellect, artificial, planning, mountain, controlled parameters, equipment performance, weighted, methods, option, algorithm, operational, language programming.

#### ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОЙ НЕЙРОННОЙ СЕТИ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ГОРНЫХ РАБОТ

Аннотация

В данной статье рассматривается использование нейронных сетей одного из направлений искусственного интеллекта в решении задач открытых горных работ. Авторами рассмотрена применение этого метода в решении задачи оперативно-календарного планирования открытых горных работ. Использование нейронных сетей в горных работах в силу неопределенности в природно-технологических системах довольно сложная задача. Авторами на основе разработанной математической модели предпринята попытка формализации знаний нейросетями.

**Ключевые слова:** Нейрон, сеть, искусственный интеллект, планирование, горный, управляемые параметры, производительность, средневзвешенное, методы, вариант, алгоритм, оперативный, язык программирования.

Планирование горных работ является непрерывным процессом составления последовательности управляющих решений для различных календарных периодов, уточняющих решения по разработке месторождения. В нем занят широкий круг специалистов инженерных служб горнодобывающего предприятия. Реальная непрерывность такого процесса возможна только при создании общего информационного пространства, включающего геолого-маркшейдерскую и горнотехническую информацию, состав и состояние горно-транспортной техники, экономические показатели и др.

2. P. W. Anderson. Localized Magnetic States in Metals. // Phys. Rev. 1961. V. 124. P. 41-53.
3. S. P. Shubin, S. V. Wonsowsky. On the electron theory of metals. // Proc. Roy. Soc. A. 1934. V. 145. P. 159-172.
4. P. Arovas Daniel, Berg Erez, A. Kivelson Steven, and Raghy Srinivas. The Hubbard Model. // Annu. Rev. Condens. Matter Physics. 2022. V. 13: P. 239-274.
5. B. V. Karpenko, V. V. Dyakin, and G. L. Budrina. Two electrons in the Hubbard Model. // Phys. Met. Metallogr. 1986. V. 61. P. 702-706.
6. S. M. Tashpulatov. Spectral Properties of three-electron systems in the Hubbard Model. // Theoretical and Mathematical Physics., 2014. V. 179 (3). P. 712-728.
7. S. M. Tashpulatov. Spectra of the energy operator of four-electron systems in the triplet state in the Hubbard Model. // Journal Phys. Conf. Ser. 2016. V. 697. 012025, P. 1-25.
8. S. M. Tashpulatov. The structure of essential spectra and discrete spectrum of four-electron systems in the Hubbard model in a singlet state. // Lobachevskii Journal of Mathematics. 2017. V. 38 (3). P. 530-541.
9. S. M. Tashpulatov. Spectra of the Energy Operator of Two-Electron System in the Impurity Hubbard Model. // Journal of Applied Mathematics and Physics. 2022. V. 10, P. 2743-2779. <https://doi.org/10.4236/jamp.2022.109184>
10. S. M. Tashpulatov. Spectra of the two-electron System in the Impurity Hubbard Model. LAP LAMBERT Academic Publishing. 2022. ISBN: 978-620-5-51516-7.
11. M. Reed, and B. Simon. Methods of Modern Mathematical Physics, Vol. 4, Operator Analysis. Acad. Press, New York. 1982.



UDK:53.096: 538.91

**Muhriddin TURSUNOV,**  
O'zMU Fizika fakulteti tayanch doktoranti  
E-mail: muhriddintursunov.1995@mail.ru  
**Gulmurza ABDURAXMONOV,**  
O'zMU Fizika fakulteti professori

Fizika-matematika fanlari doktori, professor B.Umirzakov taqrizi asosida

### THE VARIATION OF RESISTANCE WITH TEMPERATURE IN THICK-FILM RESISTORS

Annotation

This article examines the variation of resistance (R) in RuO<sub>2</sub>-based thick-film resistors within the temperature range of 300 - 1125 K. The study provides a detailed analysis of the composition, fabrication technology, as well as structural and physical property changes of thick-film resistors. A sharp change in resistance with increasing temperature was observed, particularly in the temperature range of 800 - 1000 K, with the maximum values linked to structural phase transitions of silicates and the diffusion of conductive phase particles. The research findings, including factors influencing electrical conductivity such as microstructure, temperature, and doping levels are significant for understanding the physical properties of thick-film resistors and can be applied to the development of highly efficient materials.

**Key words:** Thick-film resistor, structural phase transitions, conductive phase diffusion, doped silicate glass.

### ТЕМПЕРАТУРНАЯ ЗАВИСИМОСТЬ СОПРОТИВЛЕНИЯ ТОЛСТОПЛЕНОЧНЫХ РЕЗИСТОРОВ

Аннотация

В статье изучено изменение сопротивления (R) толсто пленочных резисторов на основе RuO<sub>2</sub> в диапазоне температур 300 - 1125 K. Проведен детальный анализ состава, технологии изготовления, а также изменений в структуре и физических свойствах толсто пленочных резисторов. Значительные изменения сопротивления наблюдались с повышением температуры, особенно в диапазоне 800 - 1000 K, где максимальные значения были связаны с фазовыми переходами в структурах силикатов и диффузией частиц проводящей фазы. Результаты исследования, включая факторы, влияющие на электропроводимость, такие как микроструктура материала, температура и степень легирования, имеют важное значение для понимания физических свойств толсто пленочных резисторов и могут быть использованы для разработки материалов с высокой производительностью.

**Ключевые слова:** толсто пленочный резистор, структурные фазовые переходы, диффузия проводящей фазы, легированное силикатное стекло.

### QALIN QATLAMLI REZISTORLARDA QARSHILIKNING TEMPERATURA BO'YLAB O'ZGARISHI

Аннотация

Maqolada RuO<sub>2</sub> asosidagi qalin qatlamli rezistorlarning qarshiligi (R) ning 300 -1125 K harorat oralig'ida o'zgarishi o'rganilgan. Tadqiqotda qalin qatlamli rezistorlarning tarkibi, tayyorlash texnologiyasi, shuningdek, ularning struktura va fizikaviy xususiyatlaridagi o'zgarishlar batafsil tahlil qilingan. Harorat oshishi bilan qarshilikdagi keskin o'zgarishlar, ayniqsa, 800 - 1000 K harorat oralig'ida kuzatilgan maksimal qiymatlar silikatlarining struktura faza o'tishlari va o'tkazuvchi faza zarrachalarining diffuziyasi bilan bog'langanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari, jumladan, elektr o'tkazuvchanlikka ta'sir qiluvchi omillar materialning mikrostrukturasini, harorat va legirlash darajasining qalin qatlamli rezistorlarning fizik xususiyatlariga ta'sirini tushunishda muhim bo'lib, yuqori samaradorlikka ega materiallar yaratishda qo'llanishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Qalin qatlamli rezistor, struktura faza o'tishlari, o'tkazuvchi faza diffuziyasi, legirlangan slikt shisha.

**Kirish.** Qalin qatlamli rezistorlar (QQR) tuzilishi rentgen va neytron diffraksiyasi, EXAFS, infraqizil va Raman spektroskopiyasi, elektron mikroskopiya kabi turli usullar yordamida keng o'rganilmoqda [1, 2]. QQR aralash silikat shisha va o'tkazuvchi faza (O'F) materiallaridan tayyorlanadi. O'tkazuvchi faza odatda elektr o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan oksid yoki metall oksidlaridan iborat bo'ladi. Masalan, RuO<sub>2</sub>, Bi<sub>2</sub>Ru<sub>2</sub>O<sub>7</sub>, va SnO<sub>2</sub> kabi materiallar keng qo'llaniladi. Bu materiallar maxsus jarayonda, ya'ni taxminan 1120 K haroratda 10 daqiqada davomida pishiriladi.

Qalin plyonkali rezistorlar (QQR) elektr o'tkazuvchanligini tushuntirish uchun bir nechta nazariy modellar ishlab chiqilgan: masalan, hopping (sakrash), to'siq orqali tunnel effekti, effektiv muhit modeli va perkolatsiya modeli. Dastlab bu modellar tartibsiz materiallar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ular faqat cheklangan sharoitlarda QQR uchun mos keladi.

Boshqa tomondan, eksperimental ma'lumotlarni Mott qonunining umumlashtirilgan shakli bilan yaxshi moslashtirish mumkin [3]:

$$\rho = A \cdot T^a \exp(T_0/T)^{1/b} \quad (1)$$

Bu yerda  $\rho$  QQR ning solishtirma qarshiligi, T namunadagi harorat, A va T<sub>0</sub> esa moslama koeffitsientlari. Parametrlar a va b qiymatlarini keng diapazonda (1 dan 7 gacha) tanlash mumkin. Ushbu yondashuv shuni ko'rsatadiki, ilgari taklif qilingan modellar eksperimental natijalarni tushuntirishda yetarli emas.

Qalin plyonkali rezistorlar (QQR) tayyorlash jarayonida pishirish davrida yuzaga keladigan fizik va kimyoviy jarayonlar, shuningdek silikatlarining tuzilmaviy o'zgarishlari mavjud maqolalarda yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, QQR ni tayyorlashda kirishma miqdorining o'zgarishi, materialning bazi xususiyatlari, masalan, qarshilik ( $\rho$ ) va Zeebek koeffitsiyenti (S) kabi xususiyatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu jarayonlarni batafsil o'rganish, QQR ning elektr o'tkazuvchanligi va Zeebek koeffitsiyentining haroratga bog'liq ravishda o'zgarishini to'g'ri tushunish uchun juda muhimdir [4, 5, 6].

**Material va metodlar.** Legirlangan slikt shisha (1-jadval) korund tigellarida 1620 K haroratda 1 soat davomida pishirildi. Eritilgan shisha distillangan suvga quyildi. Olingan shisha zarrachalari agat to'plari yordamida tegirmonda maydalandi.


1-jadval. Tadqiq qilingan LSSH namunalarning tarkibi (massaviy %)

Namunalar	Shisha tarkibiy qismlari					T <sub>f</sub> /T <sub>g</sub> , K/h	Ligatura (RuO <sub>2</sub> )	
	SiO <sub>2</sub>	PbO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CuO	MnO <sub>2</sub>			
1	11.0	61.9	0.7	1.4	10.0	15.0	1623/1	5.0
2	11.0	61.9	0.7	1.4	10.0	15.0	1623/1	10.0
3	11.0	61.9	0.7	1.4	10.0	15.0	1623/1	15.0
4	11.0	61.9	0.7	1.4	10.0	15.0	1623/1	20.0

5	11.0	61.9	0.7	1.4	10.0	15.0	1623/1	25.0
6	11.0	61.9	0.7	1.4	10.0	15.0	1623/1	30.0

Shisha kukunlari distillangan suvda 40 sm balandlikdagi shisha silindrlarda 10 va 30 daqiqa davomida ikki marta fraksiyalash amalga oshirildi, bu shisha kukuni zarrachalarining bir xil o'lcham taqsimotini olish uchun bajarildi. O'rtacha zarracha o'lchami 0,5–2  $\mu\text{m}$  bo'lgan shisha kukuni QQR tayyorlash uchun ishlatildi.

Shisha va o'tkazgich fazasi kukunlari aralastirilib, agat tegirmonda rezistiv pasta tayyorlandi. Pasta tayyorlash jarayoni 1 soat davom etdi. Rezistiv pasta 96%  $\text{Al}_2\text{O}_3$  dan tayyorlangan keramika taglikga trafaret yordamida o'tqazildi. Keyin u 420 K da 1 soat davomida quritildi va 1120 K da 10 daqiqa davomida pishirildi. Kumush kontaktlar keramika plastinka ustiga oldindan o'tqazilgan edi. Tayyorlangan rezistorlar o'lchami  $56 \times 9 \times 0,060$  mm bo'ldi. 1-rasmda legirlangan slikt shishaga  $\text{RuO}_2$  oksidini legirlash natijasida hosil bo'lgan qalin qatlamli rezistorning rasmi keltirilgan.



1-rasm. Qalin qatlamli rezistor. 1-kontakt qatlam, 2- rezistiv qatlam va 3- keramik taglik

Tayyorlangan rezistorga platina kontakt o'rnatilish pechda 300–1125 K harorat oralig'ida qarshilikning temperatura bo'ylab o'zgarishi o'lchandi. Bunda qarshilikni o'lchashda RIGOL DM3058E DIGITAL MULTIMETER dan va temperaturani o'lchashda FLUKE Ti400 PRO THERMAL IMAGER dan foydalanildi.

**Natijalar va tahlillar.** Qo'rg'oshin-silikat shisha hosil bo'lishi jarayonida moddalar o'zaro ta'sirga kirishadi va unda murakkab tarkibli silikatlar hamda o'zgaruvchan polimorf tarkibli kremniy dioksid hosil bo'ladi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kristobalit, tridimit kristallari va kvarts qoldiqlari shakllanadi hamda ularning kristallanish jarayoni silikatli shishalarda kuzatilgan [7]. Kristallitlarning o'lchami bu tadqiqot natijalariga ko'ra 10 dan 100 Å gacha o'zgaradi. Shuningdek, eng oddiy  $\text{SiO}_2$  –  $\text{PbO}$  tizimida turli p va q qiymatlari bilan (ular 1 dan 4 gacha o'zgaradi)  $\text{PbO} \cdot \text{qSiO}_2$  qo'rg'oshin-silikat kristallitlari shakllanadi. Infraqizil spektr o'rganish natijalari  $[\text{SiO}_4]$  va  $[\text{PbO}_4]$  tuzilmalari eng tipik ekanligini ko'rsatdi.

Shishaning gamogen bo'lmagan mikro tuzilmasini, ayrim moddalar yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan zonalarining o'lchami taxminan 1  $\mu\text{m}$  ekanligini hisobga olib, turli mikroskopik zonalarida shisha xususiyatlarining sezilarli darajada o'zgarishini tushunish mumkin. Masalan, legirlangan QQR dagi kvarts qoldiqlari va ko'p qo'rg'oshin-silikatlar 373 K dan 1040 K gacha haroratda tuzilmaviy o'zgarishlarga uchraydi yoki eriydi [4] (Jadval 2).

$\beta$ -kvartslarning  $\alpha$ -kvartslarga aylanishi ba'zi harorat diapazonida fizik xususiyatlarning asta-sekin o'zgarishi bilan bog'liq va o'tish nuqtasida o'zining ekstremumiga yetadi. Bu jarayon  $\beta$ -kvartslarda tebranishlarning paydo bo'lishi va  $\alpha$ -kvartslar miqdorining asta-sekin ortishi bilan bog'liq (mikroeterogen ikki fazali holatning nuqtasida). Shu nuqtada tebranishlar eng ko'p rivojlanadi va kvartslarning tuzilishi bo'shashadi (elementar hujayra hajmi 6% ga kattalashadi).


2-jadval. Slikt shishada struktura o'zgarishi

Birikma	Harorat, K	O'tish xarakteri
$\text{SiO}_2$	388	$\beta$ - $\gamma$ -tridimit
$\text{SiO}_2$	435	$\alpha$ - $\beta$ -tridimit
$\text{SiO}_2$	493	$\alpha$ - $\beta$ -kristobalit
$\text{SiO}_2$	847	$\alpha$ - $\beta$ -kvars
$\text{Pb}_2\text{O}_3\text{SiO}_4$	428	$\beta$ - $\gamma$ -o'tish
$\text{Pb}_2\text{O}_3\text{SiO}_4$	993	$\alpha$ - $\beta$ -o'tish
$\text{Pb}_2\text{SiO}_4$	998	eritish (melting)
$\text{Pb}_2\text{SiO}_4$	1016	eritish (melting)
$\text{Pb}_2\text{SiO}_6$	1037	eritish (melting)

Ma'lumki, [5, 6], materialning o'tkazuvchanligi, termoelektrik va galvanomagnit xususiyatlari qisqa masofadagi tartib (ya'ni atomlararo masofa va bog'lanish burchagi) bilan belgilanadi. Shuning uchun biz mazkur birikmalarning tuzilmaviy o'tishlari natijasida qisqa masofadagi tartib parametrlari katta o'zgarishi mumkinligini va bu o'zgarishlar taqiqlangan zonaning kengligini ( $E_g$ ), effektiv massa ( $m^*$ ) va QQR tarkibidagi o'tkazgich fazasi (O'F) zarrachalari orasidagi shisha qatlamlarda zaryad tashuvchilarning o'rtacha yashash vaqti ( $\tau$ ) ni keskin o'zgartirishi mumkin, deb taxmin qilamiz. Legirlash jarayonida Ru atomlarining diffuziyasi shisha tarkibi va tuzilishiga bog'liqdir [9]. Yuqorida aytib o'tilgan birikmalarning asosiy reflekslari  $d = 3\text{--}5$  Å diapazonida joylashgan bo'lib, ular  $2\text{SiO}_2 \cdot \text{PbO}$  shisha uchun keng yoyilgan halqaga mos keladi.

QQR tarkibidagi birikmalarning yuqori haroratlarda yuzaga keladigan tuzilmaviy o'zgarishlari qarshilik ( $\rho$ ) va termoelektrik kuchlanishini ( $S$ ) o'zgartirishi kerak.  $T = 390\text{--}1040$  K oralig'ida biz  $R(T)$  ning tegishli o'zgarishlarini kuzatdik (2-rasm).

2-rasmda turli  $\text{RuO}_2$  konsentratsiyali (5% dan 30% gacha) qalin qatlamli rezistorlarda qarshilikning temperatura bo'ylab o'zgarishi tasvirlangan. Grafiklar turli konsentratsiyalarda harorat oshishi bilan qarshilikning o'zgarishini ko'rsatadi.  $\text{RuO}_2$  konsentratsiyasi qalin qatlamli rezistorlarning qarshiligi va uning haroratga bog'liq o'zgarishini belgilovchi asosiy omildir.



2-rasm. Har xil konsentratsiyali qalin qatlamli rezistorlarda qarshilikning temperatura bo'ylab o'zgarishi. a) 5%, b) 10%, c) 15%, d) 20%, e) 25% va f) 30%

Konsentratsiya ortgan sari o'tkazuvchi faza zarrachalari orasidagi masofa qisqaradi, bu esa zaryad tashuvchilarni bir zarrachadan boshqasiga o'tishini osonlashtiradi. Natijada, yuqori konsentratsiyalarda qarshilikning kamayishi kuzatiladi, past konsentratsiyalarda esa qarshilik yuqoriligicha qoladi. Shisha qatlamlaridagi diffuziya masofasi ham konsentratsiyaga bog'liq bo'lib, past konsentratsiyalarda bu masofa uzoqroq va transport jarayonlari samaradorligi past bo'ladi. Harorat oshishi bilan  $\text{RuO}_2$  zarrachalarining shisha matritsaga diffuziyasi faollashadi, ammo bu jarayon yuqori konsentratsiyalarda yanada samaraliroq kechadi, chunki zaryad tashuvchilar uchun kanal ko'proq va o'tish osonroq bo'ladi. Konsentratsiya, shuningdek, struktura fazaviy o'tishlarining ta'sir kuchini belgilaydi. Yuqori konsentratsiyalarda silikat shishaning kristallik tarkibi o'zgarish jarayonlari kuchayadi, masalan,  $\alpha$ - $\beta$ -kvarts yoki  $\alpha$ - $\beta$ -tridimit o'tishlari haroratning o'sishi bilan yanada sezilarli bo'ladi. Bular kristall tuzilmaning bo'shashishiga olib kelib, elektron o'tkazuvchanligini oshiradi. Bunday struktura o'zgarishlari past konsentratsiyalarda kamroq ta'sir qiladi, natijada qarshilik yuqori bo'lib qoladi.

Shuningdek, R ning keskin oshishi kuzatiladigan harorat shishaning yopishqoqligi, issiqlik kengayish koeffitsienti, dielektrik o'tkazuvchanligi, o'ziga xos issiqlik kabi mikroskopik parametrlar anomalialari bilan mos keladi [7]. Bu anomalialar shisha tarkibidagi kvarts qoldiqlarining tuzilmaviy o'zgarishlari bilan bog'liq.

QQR ning legirlash jarayonida O'F ning shishaga diffuziyasi [8] da o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda O'F zarrachalari 0.2–0.5  $\mu\text{m}$  diametrga ega sferik shaklda deb hisoblangan. Legirlash harorati  $T_L$  va QQR ning qarshiligi orasida kuchli korrelyatsiya aniqlangan (eng kichik kvadratlar usuli bilan juft korrelyatsiya koeffitsienti 0.9). Ushbu tajribalar  $\text{RuO}_2$  va  $\text{Bi}_2\text{Ru}_2\text{O}_7$  ning shishaga diffuziya koeffitsientini baholash imkonini bergan.  $C_v = 20\%$  bo'lganda, legirlangan QQRda O'F zarrachalari orasidagi o'rtacha masofa 1–1.5  $\mu\text{m}$  bo'lgan va diffuziya masofasi ham 1–1.5  $\mu\text{m}$  bo'lgan. Shunday qilib, mualliflar shisha biriktiruvchi butun hajmi diffuziya tufayli yetarli darajada bir xil bo'lgan, degan xulosaga kelganlar.

Legirlash atmosferasidagi  $\text{O}_2$  ning qisman bosimining QQR o'tkazuvchanligiga ta'siri [9] da o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda qo'rg'oshin-silikatli shisha holatida legirlash jarayonida ikki va uch marta zaryadlangan Pb ionlarining muvozanati o'tkazuvchanlikka sezilarli ta'sir qilishi xulosa qilingan.

QQR ning ba'zi kinetik xususiyatlarini baholashga harakat qilaylik. O'F va shisha zarrachalarini sfera shaklida deb hisoblaymiz. O'F zarrachalarining birining massasi  $M_1 = 4\pi r^3 \gamma_o / 3$  bo'lib, QQR bir birlik hajmidagi O'F massasi  $M_o = C_v \gamma_o$ . Shunga mos ravishda O'F zarrachalarining soni  $N_o = M_o / M_1 = 3C_v / (4\pi r^3)$  bo'lib, QQR dagi O'F zarrachalari orasidagi o'rtacha masofa  $l = N_o^{-1/3} = r \{4\pi(3C_v^{-1})\}^{1/3}$  bilan aniqlanadi.

Masalan,  $C_v = 16\%$   $\text{RuO}_2$  bo'lgan QQR uchun zarrachalar o'rtasidagi masofa  $l = 1.65 \mu\text{m}$  bo'ladi. QQR ning o'tkazuvchanligi  $C_v$  ning kamayishi bilan kamayadi va aktivlangan tushga ega bo'ladi. Bu degani, O'F zarrachalari orasidagi o'rtacha masofa ortishi bilan shisha qatlamlaridagi diffuziya kirishma darajasi kamayadi va Fermi darajasi ( $E_f$ ) o'tkazuvchanlik zonasining pastki qismidan taqiqlangan zona tomon siljiydi.

Biroq, 700–1100 K da boshqa vaziyat yuzaga keladi (2-rasm). Haroratning ortishi bilan o'rtacha atomlararo masofa ortadi. Shunday qilib, QQR ning tuzilmasida yangi silikat polimorflari hosil bo'ladi. Bu esa tashuvchilar konsentratsiyasining kamayishiga va degeneratsiyaning yo'qolishiga olib keladi. Qarshilikning (R) maksimal qiymatidan yuqori haroratda silikatlarining boshqa polimorflari hosil bo'ladi va QQR

tarkibidagi ba'zi birikmalar eriydi (2-jadvalga qarang). Erish jarayonida uzilgan kimyoviy bog'lar akseptor sifatida ishlaydi va elektronlarni ushlab qoladi. Shuning uchun QQR bir qator haroratlarda kovakli o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi (ya'ni  $S < 0$ ). Elektronlarning issiqlik bilan aktivlanishi 1100 K da ustunlik qiladi va QQR yana elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi ( $S > 0$ ).

QQR yorug'lik, harorat va magnit maydoniga sezgir emas. Demak, u yerda erkin tashuvchilar konsentratsiyasi yuqori ( $n > 10^{19} \text{ cm}^{-3}$ ) va xona haroratida tashuvchilar gazi degeneratsiyaga uchraydi. QQRda uzoq masofali tartib yo'q, shuning uchun zaryad tashuvchilarining o'rtacha erkin yo'li atomlararo masofaga teng deb hisoblash mumkin ( $d \approx 2 \times 10^{-8} \text{ cm}$ ), uning tezligi issiqlik ( $v \approx 10^7 \text{ cm/s}$ ) bilan belgilanadi. Shunday qilib,  $\rho = 2.5 \Omega \text{ cm}$  bo'lgan QQRda zaryad tashuvchilarning harakatchanligi  $\mu = 1/(\text{ne}\rho) = 250 \text{ cm}^2/(\text{V s})$  va zaryad tashuvchilarning effektiv massasi  $m \approx 1.5 \times 10^{-4} m_0^*$  ( $m_0$  – erkin elektron massasi).

Xulosa. Maqolada  $\text{RuO}_2$  asosidagi qalin qatlamli rezistorlarning qarshiligining (R) 300–1125 K harorat oralig'ida haroratga bog'liq o'zgarishlari tahlil qilindi va buni quyidagicha izohlash mumkin:

1. QQR tarkibidagi silikatlarining 673 K dan yuqori haroratlarda yuzaga keladigan tuzilmaviy o'zgarishlari elektron gazi zichligining kamayishiga va degeneratsiyaning yo'qolishiga olib keladi, natijada  $\rho(T)$  o'z maksimal qiymatiga erishadi.

2. 1023 K dan yuqori haroratlarda kovakli o'tkazuvchanlik ustunlik qiladi ( $S < 0$ ). Bu silikat oynasida hosil bo'lgan qo'rg'oshin-silikatlarning erishi bilan izohlanadi.

3. QQRda erkin zaryad tashuvchilarning harakatchanligi  $250 \text{ cm}^2/(\text{V s})$  va samarali massasi  $1.5 \times 10^{-4} m_0$  deb baholandi.

#### ADABIYOTLAR

1. C. Grimaldi, T. Maeder, P. Ryser, and S. Straessler, Appl. Phys. Lett. 83, 189 (2003).
2. C. Meneghini, S. Mabilio, F. Pivetti, I. Selmi, M. Prudenziati, and B. Morten, J. Appl. Phys. 86, 590 (1999).
3. N. F. Mott and E. A. Davis, Electronic Processes in Non-Crystalline Materials, Oxford University Press (Clarendon, London and New York, 1971).
4. A. N. Winchell and H. Winchell, The Microscopical Characters of Artificial Solid Substances: Optical Properties of Artificial Minerals (Academic Press, New York and London, 1964).
5. M. Cutler, Liquid Semiconductors (Academic Press, New York and London, 1977).
6. K. Seeger, Semiconductor Physics. Springer-Verlag, Wien and New York, 1973.
7. W. Eitel, The Physical Chemistry of the Silicates (The University of Chicago Press, 1954).
8. G. Abdurakhmanov and G. S. Vahidova, Zh. Tekh. Fiz. 7, 187 (1995).
9. G. H. Frischat and W. Beier, J. Non-Cryst. Solids 71, 77 (1985).



UDK:539.21

Mohinur CHORIYEVA,

O'zRFA U.Arifov nomidagi Ion-Plazma va lazer texnologiyalari instituti tayanch doktoranti

E-mail: Chorievamohinur667@gmail.com

Ikrom UROLOV,

O'zRFA U.Arifov nomidagi Ion-Plazma va lazer texnologiyalari instituti tayanch doktoranti, O'zMU o'qituvchisi

Ishmumin YADGAROV,

O'zRFA U.Arifov nomidagi Ion-Plazma va lazer texnologiyalari instituti professori, f-m.f.d

E-mail: ishmuminyadgarov@gmail.com

G'aniboy RAXMANOV,

O'zMU "Umumiy fizika" kafedrasida professori v.b

O'zMU dotsenti, PhD G'. Eshonqulov taqrizi asosida

### FULLEREN C<sub>60</sub> MOLEKULASINING ALYUMINIY AL(001) SIRTDA ADSORBSIYASI JARAYONLARINI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida fullerene C<sub>60</sub> molekulasining ideal (defektlar va rekonstruksiyalardan xoli) alyuminiy Al(001) sirtida adsorbsiyasi molekulyar dinamika (MD) usuliga asoslangan holda LAMMPS paket dasturi yordamida simulyatsiya qilinib, fullerene molekulasining uch xil konfiguratsiyali adsorbsiyasi o'rganilgan. Har bir konfiguratsiyaga mos adsorbsiya energiyalari aniqlanib, ularning tahlili natijasi barqaror adsorbsiyalanish holatlarini aniqlangan va ularning sabablari tushuntirilgan. Shuningdek, Al-C bog'lar uzunligi va ularning tabiati haqida aniqlanib xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** sirt, fullerene molekulasini, adsorbsiyasi, alyuminiy, modellash, Brenner potentsiali, bog' uzunligi, atom, potentsial energiya, o'zaro ta'sirlar.

### COMPUTER MODELING OF ADSORPTION PROCESSES OF FULLERENE C<sub>60</sub> MOLECULE ON ALUMINUM AL(001) SURFACE

Annotation

In this study, the adsorption of fullerene C<sub>60</sub> molecule on an ideal (defect and reconstruction-free) aluminum Al(001) surface was simulated using the LAMMPS package based on the molecular dynamics (MD) method, and the adsorption of the fullerene molecule in three different configurations was studied. Adsorption energies corresponding to each configuration were determined, the results of their analysis revealed stable adsorption states, and their reasons were explained. Also, clear conclusions were made about the length of Al-C bonds and their nature.

**Key words:** surface, fullerene molecule, adsorption, aluminum, modeling, Brenner potential, bond length, atom, potential energy, interactions.

### КОМПЬЮТЕРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ АДСОРБЦИИ МОЛЕКУЛЫ ФУЛЛЕРЕНА C<sub>60</sub> НА ПОВЕРХНОСТИ АЛЮМИНИЯ AL(001)

Аннотация

В данной работе с помощью пакета LAMMPS на основе метода молекулярной динамики (МД) моделировалась адсорбция молекулы фуллерена C<sub>60</sub> на идеальной (бездефектной и безреконструкционной) поверхности алюминия Al(001), а также адсорбция молекулы фуллерена в были изучены три различные конфигурации. Определены энергии адсорбции, соответствующие каждой конфигурации, результаты их анализа выявили устойчивые состояния адсорбции и объяснены их причины. Также были сделаны четкие выводы о длине связей Al-C и их природе.

**Ключевые слова:** поверхность, молекула фуллерена, адсорбция, алюминий, моделирование, потенциал Бреннера, длина связи, атом, потенциальная энергия, взаимодействия.

**Kirish.** So'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi materiallarning texnik xususiyatlarini sifat jihatidan yaxshilashni talab qiladi, bunga esa faqatgina tubdan yangi strukturaviy va funksional materiallarni yaratish va birlashtirish orqali erishish mumkin. Materiallardan foydalanish shartlari (operativ) yangi konstruktiv materiallarga juda qattiq talablar qo'yadi, ularning asosiy minimal og'irlik xususiyatlariga ega bo'lgan maksimal kuch va qat'iylikni ta'minlashdir. Monolitik an'anaviy materiallarni kompozit materiallar bilan almashirish strukturalarning ishonchiligi va og'irlik ta'sirini oshiradi [1-5].

Sanoat rivojlanishining yo'nalishlaridan biri yangi funksional va konstruktiv kompozit materiallarga o'tishdir. Yadro, aerokosmik, avtomobilsozlik, energetika, yarimo'tkazgichlar, transport va boshqa ko'plab texnologiya sohalaridagi taraqqiyot asosan nanodispers fazasi va yaxshilangan funksional xususiyatlariga ega kompozitsion ishlab chiqarishning yangi usullarini ishlab chiqishga asoslangan [6-12].


Kompozit materiallar [13-14] ikki yoki undan ortiq turli materiallarni birlashtirib ishlab chiqiladi, ularning asosini matritsa va unga kiritilgan tashqi elementlar tashkil qiladi. Turli materiallarning kombinatsiyasi ishlatiladigan kompozitlar sof materiallarga nisbatan yuqori sifatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Asosiy matritsaga va ishlatiladigan mustahkamlovchi materialga qarab, kompozitlar ikki toifaga bo'linadi [14]. Asosiy matritsaga asoslanib, ular metall matritsa, keramik matritsa va polimer matritsa materiallariga bo'linadi. Ko'p sonli qulay xususiyatlar tufayli alyuminiy va uning qotishmalari metall matritsa (Al, Cu, Ti, Mg va Fe va boshqalar) uchun mavjud variantlar orasida eng ko'p qo'llaniladi. Alyuminiy kristalining eng muhim xususiyati shundaki, u past zichlik, yuqori quvvat va past qarshilikdan iborat bo'ladi [16,17]. Yuqori quvvatli komponentlar yoki nisbatan past massaga ega mashinalar alyuminiy matritsali kompozitlar yordamida ishlab chiqarilishi mumkin. Bunday mustahkam va yengil kompozit materiallarga aviatsiya va avtomobilsozlik sanoatida talab ortib bormoqda.

Turli tuzilishdagi uglerod zarralari muhim xususiyatlarga ega bo'lgan kompozit materiallarni yaratishda keng qo'llaniladi [18,19]. C<sub>60</sub> fullerene bilan to'ldirilgan alyuminiy-matritsali kompozitlar alohida qiziqish uyg'otadi [19-21]. Kompozit materiallarni yaratishda asosiy masalalardan biri Matritsa va to'ldiruvchi moddalarning o'zaro ta'siri jarayonlarini tadqiq qilishdir. C<sub>60</sub> fullerene turli kristalli alyuminiy yuzalar bilan o'zaro ta'siri avvalroq eksperimental [21-24] va nazariy jihatdan [25] o'rganilgan. Ma'lumki, C<sub>60</sub> alyuminiy sirt bilan o'zaro ta'sirlashganda, Al va C atomlari o'rtasida kovalent kimyoviy bog'lanish paydo bo'ladi [21-23].

Hozirgi vaqtda C<sub>60</sub> fullerene molekullari va Al(100) va Al(110) yuzasi orasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari etarlicha o'rganilmagan. atomlar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fulleren  $C_{60}$  molekulasining alyuminiy Al(001) sirtida adsorbsiyasi jarayonini molekulyar dinamika (MD) usuli asosida o'rganish va energiyani minimizatsiyalash usuli orqali fulleren molekulasining taglik sirtida adsorbsiyalanish energiyasi, shuningdek mazkur protsessda yuzaga keluvchi Al-C bog'larning uzunligi aniqlash, aniqlangan energiya va uzunlik qiymatlarini tahlil qilish orqali adsorbsiya turi, bog'lanishlarning tabiati, barqaror adsorbsiya holatlari va konfiguratsiyalari haqida ilmiy xulosalar berish hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishida qarab chiqilgan barcha o'zaro ta'sir jarayonlari molekulyar dinamika usuliga asoslangan ochiq manba LAMMPS paket dasturi yordamida simulyatsiya qilingan [26]. LAMMPS paket dasturi turli atomlararo potentsiallar (kuch maydonlari) va ma'lum chegaraviy shartlardan foydalangan holda turli sistemalarni, masalan, qattiq holatdagi strukturalar (metall, keramika) ni kabi makroskopik tizimlarni ular bir nechta atomdan tortib milliardlab sondagi atomlarga ega bo'lgan 2D yoki 3D strukturaviy holatlarini modellashtirish mumkin [26]. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqot ishining ob'ektlari bo'lmish alyuminiy taglik va  $C_{60}$  fulleren molekulasini tashkil qiluvchi atomlar orasidagi Al-Al, C-C va Al-C bog'lanishli o'zaro ta'sirlar Tersoff atomlararo potentsiali yordamida ifoda etilgan [27]. Ushbu potentsial yordamida olingan natijalar taglik va  $C_{60}$  fulleren molekulasining to'liq potentsial energiyalarini o'zaro solishtirish orqali tekshirilgan. Alyuminiy taglik atomlarining koordinatalari LAMMPS paket dasturi yordamida yaratildi. Ushbu taglik o'lchamlari  $18.34 \times 18.34 \times 18.34$  Å ga, atomlari soni 500 ga teng monokristall bo'lib, uning kristall panjara doimiysi 4.05 Å ga teng. Alyuminiy kristall panjarasi yoqlari markazlashgan rombik (fcc) panjara ko'rinishiga ega. Tadqiqot ishining ikkinchi ob'ekti  $C_{60}$  fulleren molekulasini tashkil etuvchi uglerod atomlarining koordinatalari Nanotube Modeller [28] kompyuter dasturi yaratildi. Olingan har ikkala ob'ekt ham JMOL [29] kompyuter dasturi orqali vizualizatsiya qilingan holda, ularga xos xarakteristik parametrlar adabiyotlarda berilgan qiymatlari bilan solishtirildi. Olingan natijalarga taglik o'lchamlarining ta'siri yuqorida aytib o'tilgan alyuminiy monokristall tagligidan o'chamlari bilan farq qiluvchi bir nechta tagliklar bilan olingan natijalar bilan o'zaro solishtirish orqali uning mavjud emasligiga amin bo'lindi.  $C_{60}$  fulleren molekulasining Al(001) sirtida adsorbsiyasi 0K temperaturada o'rganildi. Ushbu temperaturani NVT ansambliida barqaror ushlab turish uchun Noze-Guver termostatidan [30] foydalanildi. Simulatsiya jarayonida ilgari tanilgan harakat effektlarini hisobga olmaslik maqsadida, qaralayotgan tizim massa markazi qo'zg'almas qilib tanlandi.



1- rasm. a) alyuminiy taglik; b) fulleren  $C_{60}$  molekulasini.

1- rasmda yuqorida aytib o'tilgan alyuminiy monokristall tagligi va uning (001) sirtida adsorbsiyasi kuzatilgan fulleren  $C_{60}$  molekulasini tasvirlangan. Alyuminiy monokristali hech qanday defektlarga ega emas, shuningdek, uning sirtlari kuzatilishi mumkin bo'lgan rekonstruksiyalardan xoli qilib tanlangan. Demak, alyuminiy taglikni ideal monokristall deb hisoblash mumkin.

#### Adsorbsiya energiyasini hisoblash.


Fulleren  $C_{60}$  molekulasining alyuminiy Al(001) sirtida adsorbsiya energiyasi adsorbsiyaga doir nazariy tadqiqot ishlarida juda ko'p foydalaniladigan ananaviy usulda [31,32] aniqlandi, ya'ni alyuminiy taglik va fulleren molekulasini yakka holatida va muvozanatli holatida atomlarining to'liq potentsial energiyalari yig'indisi bilan  $C_{60}$  fulleren molekulasini taglikka adsorbsiyalangan holatidagi butun sistema atomlarining potentsial energiyasi o'rtasidagi farqni hisoblash orqali aniqlandi. Uning matematik ifodasini quyidagicha:

$$E_{\text{ads}} = E_{\text{tag/mol}} - (E_{\text{tag}} + E_{\text{mol}}).$$

Bunda  $E_{\text{ads}}$  – adsorbsiya energiyasi,  $E_{\text{tag}}$  va  $E_{\text{mol}}$  mos ravishda taglik va fulleren molekulasining yakka holatlaridagi ularga tegishli atomlarning o'zaro ta'sir potentsial energiyalari,  $E_{\text{tag/mol}}$  – molekula taglik sirtida adsorbsiyalangan holatidagi tizim atomlarining to'liq potentsial energiyasi. Ushbu qiymatlar tadqiqot metodologiyasida nazarda tutilgan shartlar va atomlararo potentsialdan foydalangan holda 0K temperaturada energiyani minimizatsiya usuli asoslanib, LAMMPS dasturida aniqlandi.

**Natijalar tavsifi va tahlili.** Tadqiqot davomida fulleren  $C_{60}$  molekulasining alyuminiy Al(001) sirtida uch xil adsorbsiyalanish konfiguratsiyalari simulyatsiya qilindi va har bir konfiguratsiya uchun adsorbsiya energiyasi bilan ushbu jarayonda yuzaga keluvchi Al-C bog'lar uzunligi va soni aniqlandi.  $C_{60}$  fulleren molekulasini alyuminiy taglik sirtida C-C bog'lanishli ko'priklar yordamida ikkilik Al-C bog'lanishli, pentagon va geksagon konturlari yordamida mos ravishda beshlik va oltilik Al-C bog'lanishli konfiguratsiyalar bilan mos ravishda -1.445 eV, -3.101 eV va 2.19 eV energiyalar bilan adsorbsiyalandi. Al-C bog'larning o'rtacha uzunligi ko'priklar (C-C), pentagon va geksagon konfiguratsiyalarida mos ravishda 2.51 Å, 2.46 Å va 2.42 Å qiymatlarga teng bo'ldi.

Ma'lumki, fulleren molekulasidagi C-C bog'lar ikki xil tabiatli: 1.38 Å uzunlikdagi C=C ikkilik bog'lar va 1.45 Å uzunlikdagi C-C birlik bog'lar. Ushbu bog'larning bir-biridan asosiy farqi C-C bog'lanishda ishtirok etuvchi etuvchi valent elektronlar sonida, C=C bog'ida ikkita kovalent bog', C-C bog'ida esa yagona kovalent bog'lanish mavjud va shuningdek, pentagon konturidagi barcha atomlar C=C bog'lanishga ega. Shu sababli, fulleren molekulasining alyuminiy taglik sirtida pentagonli konfiguratsiya bilan adsorbsiyalanish energiyasi qolgan konfiguratsiyalarga nisbatan yuqoriroq qiymatlarni qabul qilgan va barqaror adsorbsiyalanish holatini egallagan deyish mumkin.



2- rasm. Fulleren  $C_{20}$  molekulasining 3 xil konfiguratsiya bilan alyuminiy taglik sirtida adsorbsiyalanishi tasvirlangan.

2- rasmda fulleren molekulasining yuqorida nazarda tutilgani singari C-C, pentagon va geksagon konfiguratsiyalar bilan Al(001) sirtida adsorbsiyasining tasvirlari berilgan bo'lib, qora rangdagi uglerod atomlari och yashil rangdagi alyuminiy atomlari bilan Al-C bog'lanishlar hosil qilgan. Taglik bilan bog'lanishda ishtirok etmagan fulleren molekulasidagi uglerod atomlari kulrang bo'yoqlarda tasvirlangan.

**Xulosa.** Olingan natijalarni adabiyotlardan olingan natijalar bilan birgalikda tahlil qilish natijasida quyidagicha xulosalar qilindi: barcha konfiguratsiyalarda kuzatilgan adsorbsiyalar kimyoviy adsorbsiyadan iborat; pentagon konfiguratsiya bilan kuzatiluvchi adsorbsiya energiya qiymatining yuqoriligiga ko'ra, eng barqaror adsorbsiyalanish konfiguratsiyasi hisoblanadi; barcha konfiguratsiyalarda kovalent bog'lanishlar mavjud, ammo pentagon konfiguratsiyada barcha bog'lar kovalent bog'lardan iborat.

#### ADABIYOTLAR

1. Chawla, K.K. *Composite Materials: Science and Engineering*, 3rd ed.; Springer Science + Business Media: New York, NY, USA, 2013; p. 542. ISBN 978-0-387-74364-6.
2. Kumar, V.M.; Venkatesha, C.V. Effect of ceramic reinforcement on mechanical properties of aluminum matrix composites produced by stir casting process. *Mater. Today Proc.* 2018, 5, 2466–2471. [CrossRef]
3. Kablov, E.N. Innovative developments of FSUE "VIAM" of the State Research Center of the Russian Federation on the implementation of "Strategic directions for the development of materials and technologies of their processing for the period up to 2030. *Aviat. Mater. Technol.* 2015, 34, 3–33.
4. Yufeng, W.; Gap-Yong, K.; Alan, M.R. Mechanical alloying of carbon nanotube and Al6061 powder for metal matrix composites. *Mater. Sci. Eng. A* 2012, 532, 558–566.5. Bakshi, S.R.; Lahiri, D.; Argaval, A. Carbon nanotube reinforced metal matrix composites-a review. *Int.Mater. Rev.* 2013, 55,41–64. [CrossRef]
5. Matthews, F.L.; Rawlings, R.D. *Composite Materials: Engineering and Science*; CRS Press: Boca Raton, FL, USA, 1999; ISBN 0-8493-0621-3.
6. Bayda, S.; Adeel, M.; Tuccinardi, T.; Cordani, M.; Rizzolio, F. The History of Nanoscience and Nanotechnology: From Chemical–Physical Applications to Nanomedicine. *Molecules* 2020, 25, 112. [CrossRef]
7. Rogov, V.A. *Technology of structural materials. Nanotechnologies*, 2nd ed.; Urait: Moscow, Russia, 2022; p.190.
8. Chang, L.; Zhang, Z.; Ye, L.; Friedrich, K. Tribological properties of high temperature resistant polymer composites with fine particles. *Tribol. Int.* 2007, 40, 1170–1178. [CrossRef]
9. Liao, X.Z.; Serquis, A.; Jia, Q.; Peterson, D.; Zhu, Y.; Xu, H. Effect of catalyst composition on carbon nanotube growth. *Appl. Phys.Lett.* 2003, 82, 2694–2696. [CrossRef]
10. Gleiter, H. Nanostructured materials. Basic Concepts and Microstructure. *Acta Mater.* 2000, 48, 1–29. [CrossRef]
11. Suzzdalev, I.P. *Nanotechnology: Physico-Chemistry of Nanoclusters, Nanostructures and Nanomaterials*; ComKniga: Moscow, Russia, 2006; p. 592
12. R. Fasel, P. Aebi, R. G. Agostino et al, *Phys. Rev. Lett.* 76, 4733 (1996).
13. A. V. Hamza, J. Dykes, W. D. Mosley et al, *Surface Sci.* 318, 368 (1994).
14. M. Stengel, A. De Vita, and A. Baldereschi, *Phys. Rev. Lett.* 91, 166101 (2003).
15. Elena G. Zemtsova, Andrey Yu. Arbenin, Yuri V. Sidorov, Nikita F. Morozov, Petr M. Korusenko, Boris N. Semenov and Vladimir M. Smirnov "The Use of Carbon-Containing Compounds to Prepare Functional and Structural Composite Materials": A Review V.V. Reshetniak and O.B. Reshetniak "Interatomic interaction at the aluminum- fullerene C<sub>60</sub> interface ". Lev R. Sizov, Daria V. Revina, Alexander Yu. Rybkin, Alexei V. Kozlov, Anatoliy P. Sadkov, and Nikolay S. Goryacheva "Aluminum Phthalocyanine – Fullerene Supramolecular Dyads: Synthesis, Photophysical Properties and ROS Photogeneration". H. G. P. Kumar and M. A. Xavier, Graphene reinforced metal matrix composite (gmmc): A review, *Procedia Engineering* 97, 1033 (2014).
16. F. A. Khalid, O. Beffort, U. E. Klotz, B. A. Keller, P. Gasser, and S. Vaucher, Study of microstructure and interfaces in an aluminium-C<sub>60</sub> composite material, *Acta Materialia* 51, 4575 (2003).
17. I. Korobov, A. I. Kokshaiskiy, V. M. Prokhorov, I. A. Evdokimov, S. A. Perfilov, and A. D. Volkov, Mechanical and nonlinear elastic characteristics of polycrystalline AlMg6 aluminum alloy and n-AMg6/C<sub>60</sub> nanocomposite, *Physics of the Solid State* 58, 2472 (2016).
18. J. Shin, K. Choi, S. Shiko, H. Choi, and D. Bae, Mechanical damping behavior of Al/C<sub>60</sub> fullerene composites with supersaturated Al-C phases, *Composites Part B: Engineering* (77), 194 (2015).
19. M. K.-J. Johansson, A. J. Maxwell, S. M. Gray et al., *Phys. Rev. B* 54, 13472 (1996).
20. M. K.-J. Johansson, A. J. Maxwell, S. M. Gray et al., *Surface Sci.* 397, 314 (1998)
21. A. J. Maxwell, P. A. Brühwiler, S. Andersson et al., *Phys. Rev. B* 52, R5546 (1995).
22. Sandia National Laboratories, Large-scale Atomic/Molecular Massively Parallel Simulator (LAMMPS), 2023, <https://www.lammps.org/>
23. G. Plummer and G.J. Tucker, Bond-order potentials for the Ti<sub>3</sub>AlC<sub>2</sub> and Ti<sub>3</sub>SiC<sub>2</sub> MAX phases, *Physical review B*, Vol. 100, pp. 214114, 2019.
24. M. Yoshida, Nanotube Modeler (Nanocoones, Bucky-Ball, Fullerenes, Simulation Software) ([www.jcrystal.com](http://www.jcrystal.com))
25. Java, Jmol, 2023, <http://www.jmol.org/>
26. Hoover, W.G., "Canonical dynamics: Equilibrium phase-space distributions", *Physical Review A*, Vol. 31, 1695, 1985, <https://doi.org/10.1103/PhysRevA.31.1695>
27. Y. S. Al-Hamdani et al, Properties of the water to boron nitride interaction: From zero to two dimensions with benchmark accuracy, *Journal of Chemical Physics*, Vol. 144, 154706, 2016, <https://doi.org/10.1063/1.4985878>
28. Dan C. Sorescu et al, First-principles calculations of the adsorption, diffusion, and dissociation of a CO molecule on the Fe (100) surface, *Physical Review B*, Vol. 66, pp. 035416, 2002, <https://doi.org/10.1103/PhysRevB.66.035416>